

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti**

O‘zbek filologiyasi fakulteti

**Amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili va adabiyoti
o‘qitish metodikasi kafedrasи**

Ma’ruzalar matni

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	5111017 – Kasb ta’limi: iqtisodiyot
	5111100 – Musiqa ta’limi
	5111600 – Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari, va huquq ta’limi
	5120300 – Tarix(mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha)
	5120400 – Arxeologiya

2-kurs talabalari uchun

Tuzuvchi: dots.Boltayev M.

Samarqand - 2015

Kirish. “O‘qituvchining nutq madaniyati” fanining maqsad va vazifalari. Fanning huquqiy asoslari.

Reja:

1. Mavzuga doir asosiy tayanch so‘zlar, terminlar va iboralar.
2. “O‘qituvchining nutq madaniyati” fanining o‘qitilishidan ko‘zda tutilgan maqsad.
3. “O‘qituvchining nutq madaniyati” fanining o‘qitilishi bilan bog‘liq vazifalar.
4. Til va nutq.
5. Madaniyat, nutq madaniyati tushunchalari.
6. “O‘qituvchining nutq madaniyati” fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
7. “Davlat ytili haqida”gi qonun, uning moddalari, tarixiy ahamiyati.
8. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonun, uning ijrosi va tarixiy ahamiyati.
9. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, ularning hayotga tatbiq etilishi.
10. Adabiyotlar.

Mavzuga doir asosiy tayanch so‘zlar, terminlar va iboralar:

Jamiyat, til, tafakkur, ong, nutq, muomala, madaniyat, til madaniyati, nutq madaniyati, o‘qituvchining nutq madaniyati, fanlararo aloqa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, dialektologiya, frazeologiya, mantiq, psixologiya, fiziologiya, etika, estetika, notiqlik san’ati, tarix, falsafa, fonetika, morfologiya, sintaksis, grammatika, orfografiya, orfoepiya, stilistika, xalq zukkoligi, latifa, askiya, badiiy asar, ilmiy asar, publitsistika, she’r, hikoya, ifodali o‘qish, imlo qoidalari, tinish belgilari, ohang, urg‘u.

Ma’lumki, filologiya tilshunoslik, adaboyotshunoslik, fonetika, leksikologiya, stilistika, etimologiya, grammatika, morfologiya, sintaksis, frazeologiya, dialektologiya, grafika, orfografiya, punktuatsiya, terminologiya kabi bir qator soha va bo‘limlardan tashkil topgan.“O‘qituvchining nutq madaniyati” fani nisbatan ulardan keyinroq paydo bo‘lgan. Uning fan sifatida shakllanganiga hali ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q, ya’ni uning yoshini 20-30 yil atrofida deb hisoblash mumkin. Ammo nutq madaniyati fan sifatida shakllanganiga ko‘p yillar bo‘lgan.“O‘qituvchining nutq madaniyati” fani nutq madaniyatining ajralmas bir qismidir. Albatta, har qanday fanning obyekti, maqsadi, vazifalari bo‘ladi. “O‘qituvchining nutq madaniyati” fanining o‘rganish obyekti jonli nutqdir. Chunki insoniyat kelajagi bo‘lgan bolalarni, ilm taraqqiyoti asosi bo‘lgan oliy o‘quv yurtlari talabalarini tarbiyalovchi o‘qituvchilar bor ekan, ular nutqini o‘rganish zaruriyati kun tartibida dolzarb masala bo‘lib turaveradi.

“O‘qituvchining nutq madaniyati” fanini o‘rganishdan maqsad o‘qituvchi-murabbiylarimizning o‘z ona tillarida uning beqiyos boyligi bo‘lgan serjilo so‘zlar,

teran iboralar, aniq tasviriy ifodalardan unumli fo‘dalangan holda ravon, go‘zal, mantiqli, ta’sirli nutq irod qila olishlariga erishishdir. Buning uchun bo‘lg‘usi pedagog-murabbiylar – bugungi talabalarimizga mehnat faoliyati jarayonida go‘zal nutq madaniyatiga erishishlari uchun yordam beradigan, ularni qurollantiradigan til vositalarini, ulardan unumli foydalanishni o‘rgatish lozim.

Til. 1. Nutq tashkil etib, fikr, his-tuyg‘u, istak kabilarni ifodalashda xizmat qiladigan fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimi; kishilar orasida asosiy va eng muhim aloqa-aratashuv, fikrlash quroli bo‘lib xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa.

2. Nutqning u yoki bu belgilari bilan ajralib turuvchi turi. So‘zlashuv tili. Gazeta tili... **O‘zbek tilining lingvistik lug‘ati**, 42-bet(**O‘TLL**, 42.)

Nutq. 1. Tilning amaliyot shakli, voqelanishi: so‘zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan hodisa.

2. Nutqning kommunikatsiya maqsadi va sharoitiga qarab leksik va grammatik vositalardan muvofig‘ini saylab ishlatish bilan xarakterlanuvchi turi. Rasmiy nutq. So‘zlashuv nutqi... (**O‘TLL**, 28)

Madaniyat. Arabcha madinalik, shaharlik; ta’lim-tarbiya ko‘rganlik ma’nosini anglatadi. Madaniyat moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy va o‘zaro munosabatlar, siyosat, oila, axloq, xulq, huquq, ta’lim, tarbiya, ijod, ilm-fan, xizmat ko‘rsatish, turmush tarzi kabilar bilan bog‘liq keng qamrovli voqeadir. Shuning uchun u jamiyat bilan birga rivojlanadi, jamiyatning taraqqiyot darajasini aks ettiradi. Shunga ko‘ra uni ishlab chiqarish madaniyati, boshqarish madaniyati, rejalashtirish madaniyati, turmush madaniyati, xizmat ko‘rsatish madaniyati, muomala madaniyati, bola tarbiyasi madaniyati va hokazo kabi turlarga bo‘lish mumkin. **Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at**, 104-bet(**MI IOL**, 104.)

Muomala yoki nutq madaniyati.

1. Filologiya fanining jamiyat taraqqiyotining ma’lum davrida nutqdan foydalanish jarayonini o‘rganish, kishilar orasidagi aloqa vositasi bo‘lgan tildan foydalanish qoidalarini ilmiy asosda belgilash bilan shug‘ullanadigan bo‘limi.

2. Nutqning me’yoriyligi, uning ma’lum tarixiy taraqqiyot davrida shu tilda so‘zlashuvchi jamoa tomonidan qo‘yiladigan talablarga mosligi; talaffuz, urg‘u, so‘z qo‘llash, so‘z yasalishi, shakl yasalishi, so‘z birikmasi va gap tuzish me’yorlariga amal qilish. Nutqning me’yoriyligi fikrning aniq, ravshan va sofligini ham o‘z ichiga oladi... (**O‘TLL**, 28)

“O‘qituvchining nutq madaniyati” fani quyidagi fanlar bilan o‘zaro aloqador:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Bu hozirgi o‘zbek adabiy tilining fonetikasi, leksikologiyasi, morfologiyasi, sintaksisi, grammatikasi, orfografiyasi, orfoepiyasi, stilistikasi, frazeologiyasi, dialektologiyasi va boshqa bo‘limlar demakdir.

2. Adabiyotshunoslik va badiiy adabiyot.

3. Pedagogika va psixologiya.

4. Tarix.

5. Falsafa va mantiq.

6. Etika.

7. Estetika.
8. Notiqlik san'ati.
9. Fiziologiya.

10. O'quv yurtlarida o'tiladigan barcha fanlar bilan ham bilvosita aloqadordir. Chunki bu fanlarni ham o'quvchi va talabalarga o'qituvchi va murabbiylar yetkazadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili. Bu fan ming yillar davomida shakllanib, rivojlanib, sayqal topib bugungi go'zal holatiga erishgan o'zbek adaiy tili, uning qonun-qoidalarini o'rganadi. Agar o'quvchi, talaba, o'qituvchi yoki har qanday o'qimishli kishi *og'iz*, *o'g'il*, *shahar* kabi so'zlarning egalik qo'shimchalarini olanda oxirgi unli tovushning tushib qolishi to'g'risidagi qoidadan xabardor bo'lsa, o'z nutqida *g'orning og'izi*, *akamning o'g'ili*, *Samarqand shahari* deb hech qachon noto'g'ri qo'llamaydi.

Fonetika. Tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo'lish usullarini va akustik xususiyatlarini; bo'g'in, nutqning pauza bilan ajraluvchi qismlari va shu kabilarni o'rganuvchi bo'limi(**O'TLL, 50**). Tilning asosini tovushlar tashkil etishini hech kim inkor etmaydi. O'zbek tilining tovushlarini, ularning xususiyatlarini yaxshi bilgan kishi o'z nutqida har bir tovushning o'z o'minda qo'llanishiga alohida e'tibor qaratadi. Chunki tovush so'z ma'nosini farqlash uchun xizmat qiladi. Masalan, nutqimizda *qara* so'zi *qaramoq* fe'li va *qora rang* – sifat ma'nosida qo'llanadi. Vaholanki, ular ikki xil yozilib, ikki xil talaffuz ham etilish lozim. Lekin ularni talaffuz qilishda har doim ham farqlayvermaymiz: *ko'zingga qara* yoki *bu doska qara rangda* kabi. Tilimizda esa bunday egizak so'zlar ming-minglab topiladi.

Leksikologiya. Tilshunoslikning tilning lug't tarkibini o'rganuvchi bo'limi(**O'TLL, 50**). Unda tilning lug'at tarkibi, tarixiy qatlamlari, boyib borish va taraqqiyot yo'llari, so'zning o'z va ko'chma ma'nosи, qo'llanishi o'rganiladi. Ma'lumki, so'zlar bir yoki ko'p ma'noli bo'ladi. Odatda, tildagi ko'pchilik so'zlar ko'pma'nolidir. So'zlar ma'lum ma'no va shaklga ega bo'ladi. Masalan: *oy* – Yerning tabiiy yo'ldoshi, yilning o'n ikkidan bir bo'lagi. *Oyna* – kishi aksini qaytaruvchi shisha buyum, deraza yoki eshikning ko'zi. *Oy* so'zi ikki tovushdan, *oyna* so'zi esa to'rt tovushdan shakllangan. Ammo tiulda shunday so'zlar ham borki, ular lug'aviy ma'no va tushunchaga ega bo'lmaydi. Bunday so'zlar qatoriga yordamchi so'zlar – bog'lovchilar, yuklamalar, ko'makchilar, shuningdek undovlar va taqlid so'zlarni kiritish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, umumiste'moldagi so'zlarning asosiy qismi ko'pma'nolidir. Shuning uchun ham badiiy asar o'qiganda uning ma'nosini birdan tushunib yetish qiyin bo'ladi. Buning uchun o'quvchining so'z boyligi yuqori, dunyoqarashi keng, so'z tanlash mahoratiga va ulardan mohirona foydalana olish malakasiga ega bo'lishi lozim. Shunda suhabatdoshi aytayotgan fikr-mulohazalarni tez anglashi, badiiy asarni o'qib tushunishi oson bo'ladi.

Darhaqiqat, tilimiz durdonalarini chuqur bilgan bobokalonimiz Alisher Navoiy o'z asarlarida siz bilan qo'llayotgan ma'lum birgina so'zni ellikdan ortiq ma'nolarda qo'llagan.

So‘zning bir ma’noliligiga keladigan bo‘lsak, odatda terminlar bir ma’noli bo‘ladi. Chunki fan, texnika, sn’at va boshqa sohalarga oid terminlarning ko‘pma’noliligi ular taraqqiyoti uchun xizmat qilmaydi. Aksincha, turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. To‘g‘ri, terminlar o‘zi mansub fan, texnika, sport, madaniyat, san’at sohasidan tashqarida boshqa so‘zlar kabi ko‘pma’noli bo‘lib qolaveradi. Masalan: *ot* – filologiyada so‘z turkumi, biologiyada xonaki hayvon nomi, umumiste’molda esa otmoq fe’li, ism va boshqa ma’nolarda qo‘llanaveradi. Bu hol, o‘z navbatida so‘zlarning ko‘pma’noililigi, omonimligi kabi xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Morfologiya. So‘z shakllari haqidagi ta’limot. Grammatikaning tarkibiy qismi. Morfologiya va sintaksis birligida grammatikani tashkil etadi. Tilning morfologik qonun-qoidalarini chuqur o‘rgangan kishi o‘z nutqida so‘z turkumlaridan, ularning turli shakllaridan, qo‘sishchalaridan o‘rinli va unumli foydalanadi. Masalan, hozirgi zamon fe’lining *-a*, *-y*, *-yap*, *-yotib*, *-yotir*, *-moqda* qo‘sishchalaridan foydalanishda xatoga yo‘l qo‘ymaydi, nutqida hozirgi zamon fe’lining faqat birgina qo‘sishchani ishlatib uslubiy takrorlikni yuzaga keltirmaydi. Biroq bu borada kamchiliklar ham yo‘q emasligini ta’kidlab o‘tish joiz. Vaqtli matbuot sahifalarida, hatto ayrim badiiy va ilmiy adabiyotlarda ham *boryapti* – *borayapti*, *yozyapti* – *yozayapti* kabi so‘zlarning to‘g‘risini farqlamasdan qo‘llash hollari ko‘plab uchrab turibdi.

Sintaksis. Grammatikaning o‘zaro bog‘lanishli nutq qurilishin organuvchi bo‘limi yoki so‘z turkumlarining nutqdagi vazifalari haqidagi ta’limot(O‘TLL, 35). Sintaksissni yaxshi o‘rganmagan kishining gaplar tuzishdagi kamchiligi og‘zaki nutqda jiddiy ko‘zga tashlanib turmasligi mumkin. Ammo yozma nutqda fikr-mulohazalarni mantiqiy asosli qilib, ega-kesimi, ikkinchi darajali bo‘laklarini joy-joyiga qo‘yib, betakror gaplar tuzishda bu borada egallanmagan malaka g‘aliz jumلالарда bo‘y ko‘rsata boshlaydi. O‘qituvchi o‘z fanini chuqur bilgani holda faqat og‘zaki nutq orqaligina o‘quvchilarga yangi bilimlarni yetkazib berish bilan kifoyalana olmaydi. U o‘z fanidan turli dastur va rejalar, konspekt va dars ishlanmalari, mashqlar, masalalar, ma’ruza matnlari, ko‘rgazmali qurollar maqolalar ham tayyorlaydi. Bunda o‘qituvchiga sintaksisdan olgan nazariy va amaliy bilimlari qo‘l keladi, albatta.

Orfografiya yoki imlo qoidalari. So‘z va uning ma’noli qismlarini yozish (qo‘sib yozish, ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish), bosh va kichik harflarni ishlatish, shuningdek bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari tizimi. O‘qituvchilar imlo qoidalarni chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishlari shart. Ayniqsa, bugungi kunda kirill alifbosidan lotin yozushi asosidagi yangi o‘zbek alifbosiga o‘tilishi munosabati bilan tuzilgan o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarni ytaxshi o‘zlashtirib olishlari lozim. Chunki biror bir so‘zning qanday yozilishi, bo‘g‘inga ajratilish, ko‘chirilishin bilmaydigan o‘qituvchi shogirdlari oldida juda ham noqulay ahvolga tushib mulzam bo‘lib qolishi tabiiy. Masalan, yil, oy va sananing yozilishi ikki alifboga asoslangan imlo qoidalarda ikki xil. Yoiki, *tadqiqot*, *tatbiq* so‘zlari bir xil talaffuz etilsa-da, ikki xil yoziladi. Shuningdek, o‘zlashma so‘zlarning yozilish va talaffuzidagi farqni har bir oliy ma’lumotli mutaxassis bilishi lozim. Bunday

qidalardan bexabar har qanday xodim hujjatlar bilan ishlay olmaydi, yozma nutqda imloviy, ishoraviy xatoliklarga yo'l qo'yaveradi.

Orfoepiya. Tilshunoslikning me'yoriy adabiy talaffuzini o'rganuvchi bo'limi yoki biror tilda qabul qilingan me'yorlarga mos holda bir xil talaffuzni belgilovchi qoidalar tizimi(O'TLL, 30). Og'zaki nutq me'yorlaridan boxabar bo'limgam o'qituvchi ham so'zlarni to'g'ri talaffuz eta olmaydi. *3 so'm pul, 5 so'mlik qog'oz, 15 ta kitob* kabi birikmalarning yozilishi bilan talaffuzida ancha farq bor. Shuningdek, *Otam har kungiday barvaqt tirib, ishga chiqib ketdi*, - gapining ham yozilishi va talaffuzida farq bor. Bu qidalardan bexabar ayrim teleradio boshlovchilari ham **ng** tovushini **n** va **g** tovushlari kabi alohida-alohida talaffuz etib, uslubiy g'alizlikka yo'l qo'yadilar: *Sizni tabriklab qoluvchi otan-giz, onan-giz, akan-giz va ukon-giz*, - kabi.

Stolistika yoki uslubiyat. Til birliklarining uslubiy qonuniyat va xususiyatlari, funksional-uslubiy, emitsional ekspressiv bo'yog'i, shiningdek nutqda til vositalarini maqsadga muofiq tarzda tanlash va qo'llash haqidagi ta'limot. Ma'lum bir uslubga xos so'zlarni o'z o'rnida ishlatishni o'rganuvchi soha. Bunda og'zaki so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, badiiy uslub, ommabop uslubga xoslangan so'zlar ba'zan farqlanmasligi orqali ham uslubiy g'alizliklar kelib chiqadi. Masalan: *yer, zamin, tuproq* so'zları o'zaro yaqin ma'no ifodalagani bilan nutqda qo'llanganda farq qiladi. *Zaminni ketmon bilan ag'daramiz. Mashinadagi yerni to'king. Tuproq insonni boqadi*, - deyilmaydi. Adabiy asarlarda qo'llangan yuksak badiiy ifoda kasb etuvchi so'zlarni og'zaki so'zlashuv uslubida qo'llash kulgili tuyuladi. Masalan: *kelinpushho, mehmonlarning oldida bunday orazingiz(yuzingiz, chehrangiz)ni ochib o'tiring*.

Frazeologviya. Tilshunoslikning frazeologik birliklar – iboralarni o'rganuvchi sohasi. Tilning frazeologik birlıkları majmuyi(O'TLL, 51). Iboralar ham so'zlar kabi til birligi hisoblanadi. So'zlarda bo'lgani kabi iboralarning ham ma'nosi, shakli va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, sintaktik vazifasi mavjud. Ularni o'z o'rnida qo'llash nutq ta'sirchaligini oshiradi, anglatilayotgan fikrga tinglovchining diqqatini tortadi, nutq rang-barangligini ta'minlaydi. Masalan: *qizim senga aytaman, kelinim sen eshit; o'z yog'iga o'zi qovurilmoq; ko'zi to'rt bo'lmoq; chumchuq pir etsa, yuragi shir etmoq* kabi.

Dialektologiya. Tilshunoslikning lahja va shevalarni o'rganuvchi bo'limi. O'zbek tili ko'p shevali til hisoblanadi. Agar har bi kishi o'z shevasi yoki lahjasida so'zlaeversa, bu hol adabiy tilning rivojiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Bundan besh asr oldin o'zbek adabiy tiliga asos solgan ulug' bobokalonimiz, mutafakkir shoir Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, uning izdoshlari Bobur, Nodira, Muqimiy, E.Vohidov, A.Oripov kabi o'nlab, yuzlab ijodkorlarning asarlarini o'qiganimizda ona tilimizning naqadar boy ekanligidan faxr hislarini tuyamiz. Ammo, ba'zan o'z nutqimizga e'tiborsizlik qilib, sheva so'zlarni, boshqa tilga xos so'zlarni ixtiyorsiz ravishda ishlatib yuboramiz. Bunday nomaqbul hollarga barham berish uchun sheva va adabiy tilga xos so'zlarni farqlashimiz, tilimizga o'zlashgan va o'zlashmagan so'zlarni bilishimiz, huda-behudaga boshqa tilga xos so'zlarni nutqimizda qo'llayvermasligimiz lozim. Buni o'quvchilar va talabalarga ham

o'rgatishimiz, ularda adabiy tilda so'zlashish, muloqot qilish malakasini hosil qilishimiz kerak.

Adabiyotshunoslik va badiiy adabiyot. Adabiyotshunoslik badiiy adabiyot namoyandalarining hayoti va ijodini, adabiyot tarixini, adabiy jarayonni, adabiyot nazariyasini, badiiy asarlarni tahlil qilishni o'rganuvchi, badiiy asarlarning yutuq va kamchiliklarini ko'rsatib beruvchi soha.

Hayotimizni badiiy adabiyotlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki badiiy asar bizni hayotga, ezgulikka, go'zallikni his qila bilishga o'rgatadi. U ongimiz va dunyoqarashimizni boyitadi, kengaytiradi, rivojlantiradi, mukammallashtiradi. Biror badiiy asarni o'smirligimizda, o'rta yasharligimizda va keksaygan chog'imizda o'qiganda undan turlicha taassurot olamiz, turlicha xulosa chiqaramiz, qahramonlarga turlicha munosabatda bo'lamiz. Bu tabiiy hol. Chunki inson ulg'aygani sari har bir narsaning mohiyatini chuqurroq va to'laroq anglab yeta boshlaydi. Shuning uchun ham badiiy adabiyot har birimizning butun umrlik hamrohimiz bo'ladi. Hech qanday badiiy film, teatr kishini badiiy asarchalik hayratga sola olmaydi, tarbiyalay olmaydi. Muqaddas hadislarda bejizga "So'zda sehr bor, she'rda hikmat" deyilmagan.

O'qituvchi badiiy asarlar orqali xalq zukkoligini, tarixini, madaniyatini, urfodatlarini, an'analarini o'zlashtiradi, latifa, topishmoq, maqol, askiya, hikoya, doston, g'azal, tuyuq, ruboiy, masal, qissa, roman kabi badiiy adabiyot janrlari bilan tanishadi, ulardagi go'zal ifodalar bilan o'z nutqini boyitish malakasini hosil qiladi.

O'qituvchi pedagogika, psixologiya, tarix, falsafa, mantiq, etika, estetika, notiqlik san'ati, fiziologiya kabi fanlarning qonun-qoidalaridan yetarlicha boxabar bo'lganda esa o'z nutqini, fikr-mulohazalarini, qarashlarini to'g'ri, izchil, ta'sirli, tushunarli va o'ta zarur ma'lumotlar bilan boyitgan holda shogirdlariga, hamkasabalariga, tinglovchilarga yetkaza oladi.

Adabiyotlar

1. Кудратов Т. Нутқ маданияти асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1993, 15-22-betlar.
2. Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati asoslari. –T.: Yangi hayot, 2008, 3-15-b.
3. Элмуродов Н. Ўқитувчининг нутқ маданияти. Ўкув қўлланма. СамДУ нашри, Самарканд, 2003, 3-10-b.
4. Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. –Т.: Ўзбекистон, 1992.
5. Karimov S.A., Mahmatmurodov Sh.M., Karimova O.N. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritiq. –T.: O'zbekiston, 2003.

2-mashg‘ulot.

Mavzu: Nutq madaniyati va notiqlik san’ati tarixi. 2 soat.

Reja:

1. Mavzuga doir asosiy tayanch so‘zlar, terminlar va iboralar.
2. Qadimgi Yunoniston va Rimda nutq madaniyati nazariy asoslarining yaratilishi, notiqlik san’atining vijudga kelishi va uning namoyandalari.
3. Sharqda va’zxonlik (notiqlik) va nutqqa munosabat, notiqlik san’ati rivoji.
4. Og‘zaki irochilik va notiqlik san’ati.
5. Ifodali o‘qish.
6. Nutq odobi.
7. Adabiyotlar.

Mavzuga doir asosiy tayanch so‘zlar, terminlar va iboralar:

So‘z, tushuncha, nutq, notiq, notiqlik san’ati, nutq madaniyati yoki madaniy nutq, va’z, voiz, va’zxonlik, nutq shakllari, og‘zaki nutq, yozma nutq, og‘zaki ijrochilik, ifodali o‘qish, termalar, nutq odobi.

Biz oldingi ma’ruzamizda til, nutq, madaniyat, nutq madaniyati, o‘qituvchining nutq madaniyati, uning yangi fan ekanligi, bu fanning boshqa fanlar bilan aloqasi haqida ma’lumot berib o‘tgan edik. Bu ma’ruzamizda esa nutq madaniyati va notiqlik san’ati, uning shakllanish tarixi, rivoji, takomili hamda bugungi kunda nutq madaniyatiga bo‘lgan ehtiyoj haqida bahs yuritamiz.

Mavjud lingvistik adabiyotlarda notiq, notiqlik, notiqlik san’ati; voiz, voizlik, voizlik san’ati kabi tushuncha va atamalarga duch kelamiz. Xalq orasida: so‘zga chechan, so‘zga usta, soz ustasi, so‘zamol, so‘zamollik, so‘zni boplaydi, gapni do‘ndiradi, gapga usta, chiroyli gapiradi singari iboralar bor. Keltirilgan so‘z va iboralarning barchasi inson nutqi kamolotining darajasini, umumiy, jo‘n nutqdan farqlanadigan nutq namunalarini ifoda qiladi. Hamma ham agar u nutqiy nuqson bilan tug‘ilmasa(soqov, dudmal bo‘lmasa) gapiradi. Ammo hamma ham bir xilda gapga chechan, o‘ta chiroyli gapiruvchi bo‘lavermaydi. *Nutqiy chechanlik – notiqlik* alohida qobiliyatdir.

Har qanday nutq “notiqlik” namunasi (san’at sifatida) va uning egasi chin ma’noda “notiq” (san’atkor ma’nosida)degan gap emas. Notiqlik qadimiy davrdan beri alohida mahorat, san’at sifatida, insondagi maxsus, noyob qobiliyat tarzida talqin etib kelinadi.

O‘zbek tilshunosligi va sn’atshunosligida notiqlik san’ati va uning o‘tmishi yetarli ishlangan emas. Nutq madaniyati sohasi va uning maqsadini ommaga yetkazishda o‘tmish notiqligining ijobiy tomonlaridan keng foydalanish zarur. Notiqlikning ko‘pgina ko‘rsatmalari, qoidaviy holatlari, taniqli notiqlarning shaxsiy qobiliyat va faoliyatlarini nutq madaniyatini tarbiyalashda yaxshigina namunaviy tashviqot quroli bo‘lishi mumkin.

Nutq madaniyati va notiqlik san’ati, umumiy, o‘xhash tomonlarga ega. Har ikkala soha til va nutq, inson nutqi bilan aloqadordir. Har ikkalasi kishilar nutqiy faoliyatining foydali, ta’sirchan, o‘tkir bo‘lishi uchun kurashadi, insonning nutqiy madaniyatini, uning nutqiy hayotini o‘stirishga xizmat qiladi. Nutq madaniyati ham, notiqlik ham nutqiy odob, nutqiy go‘zallik, nutqiy mantiq qonuniyatlaridan oziqlangan holda ish ko‘radi. Ammo shunga qaramasdan nutq madaniyati tushunchasi bilan notiqlik tushunchasi aynan bir narsa emas (1.139-145-b.).

Qadim zamonlardan beri jamoat oldida so‘zga chiqib, odamlarga o‘z fikrini tushunturish, ular ongiga ta’sir etib, o‘z ortidan ergashtirish, biror narsa, voqeа, hodisa haqida gapirganda ishontirish va isbotlab berishga intilish, insonlar orasidan so‘zamol notiqlarning chiqishiga zarurat tug‘dirgan hamda notiqlik san’atining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Yunonistonda demokratiya tuzumining o‘rnatalishi natijasi o‘laroq, xalq yig‘inlarida, senat kengashlarida, davlat ishlarida, sud ishlarida mamlakatning har bir ozod kishisi erkin nutq so‘zlash huquqiga ega bo‘lgan.

Davlat ishlarini boshqarishda qatnashishnin istagan, lashkarboshilikni xohlagan har bir kishi uchun chiroyli va ta’sirchan nutq so‘zlash san’atini egallah majburiy bir ehtiyojga aylangan. Bunday shxslar xalq yig‘inlariga to‘plangan odamlar oldida nitq so‘zlab yo yutuq, yoxud mag‘luboyat quchganlar. Ular orasida so‘zga chechanlari keskin dalillar bilan xalqni ishontirib, odob bilan so‘zlagan davlat arboblari xalq nazariga tushib yanada obro‘ orttirganlar, gapni eplab gapira olmaganlari esa xalq nazaridan qolgan. Afinada notiqlik san’atining keng rivoj topishiga sud tartibot qoidalarining ham kuchli ta’siri bo‘lgan. O‘sha davr sud majlislarida sudlanuvchi yoki da’vogar o‘z fikrlarini ishonzhli isbotlar asosida gapira olishi lozim bo‘lgan. Natijada qadimgi yunon tilida “logograflar”deb ataladigan, tajribali, qonunni biladigan “advokat”larga ehtiyoj tug‘lidai. Logograflar sudda qatnashyotgan jinoyatchi va da’vogarlarga nimani gapirishi lozimligini yozib bergenlar... Dastlab “Notiqlik san’ati”ning asta-sekin siyosiy va sud notiqligi vujudga keladi, keyinroq mashhur voqealarni, ulug‘ zotlarni madh qiluvchi epidektik notiqlar maydonga keladi.

Afinada eradan oldingi V asr o‘rtalarida notiqlik san’ati shakllangan bo‘lsada, adabiy faoliyat o‘rnida qabul qilinmagan va u nutqlarning matnlari bosilmagan.

Bu san’atni ilk bor adabiy janr darajasiga ko‘targan hamda notiqlikka ilmiy yondashgan kishilar sofistlar hisolangan. Ular o‘zlaridan oldin o‘tgan notiqlarning faoliyatlarini nazariy asoslashga kirishib, “Ritorika” ilmini yaratadi.

Sitsiliya oroli ritorikaning asl vatani hisolanadi. U joylarda V asr o‘rtalaiga kelib demokratiyaning yo‘lga qo‘yilishi, notiqlik taraqqiyoti uchun omil bo‘ldi. (5.16-17-b.) Qadimgi yunon ritorikasining asoschilari deb sitsiliyalik Korak, Tisiy, Gorgiylarni tan olishgan. Bizgacha Gorgiyning “Yelena” va “Palimed” sarlavhali

ikkita mifologik ma’ruzasi yetib kelgan. Uning bu asarlarida tantanali epitetlar, majoziy iboralar haddan tashqari ko‘p uchraydi. Shuning uchun ham qadimgi yunonlar Gorgiyning usulini “jimjimador uslub” yoki muallifning nomiga nisbat berib “Gorgiy uslubi” deb ataganlar.

Ellinizm davrining olimlari Afinada yashab ijod etgan notiqlardan o‘nta notiqni mashhur va ulug‘laridan deb, ritorika ilmini o‘rganishda ularning asarlaridan foydalanishni afzal bilganlar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, **Antifont, Andokid, Litsiy, Isokrat, Isiy, Likurg, Demosfin, Esxil, Giperd va Dinarxlarning asarlari** bizgacha yetib kelgan. (5.17-b.)

Litsiy. Taxminan eradan avvalgi 459-380-yillarda yashab o‘tgan. Afinada yashab o‘tgan eng mashhue sitsiliyalik notiq-logograf.

Qadimgi yunonlarning fikriga ko‘ra, Litsiy butun ijodi davomida uch yuzga yaqin nutq yozgan. Shundan bizgacha sud nutqlaridan iborat o‘ttiz to‘rttasi saqlanib qolgan.

Litsiy logografik kasbi davomida unga ishi tushib kelgan kishilarning hojatini bitirishdan oldin, ularning dunyoqarashini, psixologiyasi va tabiatini chuqur o‘rganib, keyin ularga o‘z qo‘llari bilan va tillaridan yozganday qilib nutq yozib beradi. Litsiy nutq yozib berishdan oldinundan yordam so‘rab kelgan buyurtmachini o‘rganadi. Shundan keyingina u odamga ijtimoiy kelib chiqishiga, jamiyatda tutgan o‘rniga, shaxsiy xarakteri va tabiatiga moslab nutq yozib bergan. Litsiy san’atkorligining asosiy siri shundaki, u nutq yozishga kirishar ekan, bir maqsadni ko‘zlaydi, sudda gapirayotgan kishi haqida sud hay’atlari ko‘nglida ishonarli taassurotlar qoldirish, so‘zlovchinig har bir gap-so‘zi, qalbidan chiqayotgan samimi gaplar ekaniga ishontira olishdir. Litsiy buyurtmachilari orasida olifta, o‘ziga bino qo‘ygan, dimog‘dor shaxsmi, tiyinni-tiyinga urib foyda ko‘raman deb yurgan xasis olibsotarmi, xotini izmida yurgan, o‘z fikri bo‘lmagan laqma ermi yoki shallaqi ayolmi, maqtanchoqmi, ayyormi yoxud sodda omi insonmi, kim bo‘lishidan qat’iy nazar – Litsiy ularning har biri xarakter xususiyatiga, tabiatiga, bilimiva jamiyatdagi mavqeyiga mos keladigan o‘z nutqi bilan tinglovchilarni ishontiradigan uslubni topadi. Litsiy uslubiga xos husn va latofat ham nutq tilining sodda, aniq va fikrning lo‘ndaligida ko‘rinadi. Litsiydagagi bi mahorat – ya’ni har kimni o‘z tilida, o‘z tabiatiga mos gapirtirish, gapiruvchining qiyofasini to‘la ko‘rsata olish, yunon tarixida o‘tgan logograflarning birortsida uchramaydigan hodisa.

Litsiy tomonidan btilgan har bir nutq sud minbaridan turib gapirayotgan qonunshunosning safsata gaplari emas, balki mohir notiq qalamiga mansub bir asar sifatida ahamiyatli. Uni ijro etayotgan odam go‘yo sud minbari sahnasida rol ijro etayotgan aktyorni eslatib, tinglovchilar ongiga hikoyasini singdirib, ular qalbini junbushga keltiradi.

Yunonlarda notiqlik san’atining quloch yoyishi sud notiqligidan so‘ng, harbiy notiqlik va siyosiy notiqlik turlarining, sal o‘tmay epidektik – tantanali notiqlik paydo bo‘lishiga olib keldi.

Epidektik notiqlikda balandparvoz so‘zlar ishlatalar, shu bois ham bunday nutq matnini tayyorlash anchagina izlanishni talab qilardi. Natijada logograflar o‘zlaridan oldingi voizlarning merosiga va xalq og‘zaki ijodiga murojaat eta

boshladilar. Shu tariqa chiroyli so‘zlash san’ati sata-sekin shakllanib, badiiy adabiyotning rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Ya’ni, tragediya, komediya va roman janrlarining tug‘ilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Eng muhimi, notiqlik san’atining rivoji adabiy tilning shakllanishiga, shuningdek, notiqlik san’ati nazariyasi bo‘lmish “ritorika” ilmining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Rimdag'i barcha shoirlar va notiqlar shu maktabdan, ya’ni ritorikadan ta’lim olganlar.

Notiqlar tomonidan yaratildan nutq matnlari nasriy va poetik ijod namunasi sanalgan. Bunday ijodkor notiqlarning nomi o‘z mamlakati doirasidan chiqib, jahonga ma’lum va mashhur bo‘lgan. **Aristotel, Demosfen va Sitseronlar** shular jumlasidandir.(5.18-22-b.)

Aristotel. Markaziy Osiyoda Arastu nomi bilan mashhur bo‘lgan Aristotel eramizdan avvalgi 384-yilda Makedoniya yarim orolidagi Stag‘ir shahrida shifokor oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Nikomax podsho Aminti II saroyida shifokorlik qilgan.

Aristotel 17 yoshida afinaga keladi va bu yerda o‘z zamonasining mashhur olimlaridan Platonga shogird tushadi. 342-yili Makedoniya podshosi Filipp o‘zining Aleksandr ismli 13 yoshli o‘g‘lining tarbiyasi uchun Aristoteilni Mitilenden chaqirib oladi. Bu yerda u falsafa mifikabini ochadi va katta kutubxona tashkil qiladi.

Shu davrda Gretsiyada chiroyli so‘zlashga qiziqish kuchayib ketgan edi. Natijada qator notiqlik maktablari ochiladi. Keyinchalik chiroyli so‘zlash haqidagi qo‘llanmalar maydonga keldi. Shunday asarlardan biri aristotelning “Ritorika” nomli kitobidir. Buyuk olim uni mashhur “Poetika” nomli asaridan so‘ng, ya’ni eramizdan oldingi 330-yillarda yozgan edi.

Aristotelning “Ritorika”si uch kitobdan tashkil topgan. Asarning birinchi va ikkinchi kitoblari, asosan chiroyli so‘zlash, ishontirish uslublari haqidagi fikr va mulohazalardan iborat bo‘lsa, ikkinchi kitobida nutq mantiqiga juda katta ahamiyat beriladi. Olimning fikricha, notiq tilidagi turli “qorishmalar”, ya’ni so‘zlearning noto‘g‘ri va noo‘rin talaffuz qilinishi, jumlalarning mantiqan har xil tuzilishi so‘zlovchining katta xatosidir. Aristotel har bir jumlaning asosiy fikrni ifoda etishga qaratilishi, ravon va tinglovchi tushunadigan darajada sodda bo‘lishini talab etadi. U notiqning hissiyot bilan so‘zlashi mulohaza yuritayotgan fikrning tinglovchi qalbiga tez yetishida muhim omil bo‘lishini alohida uqtiradi. Bundan tashqari, Aristotel notiqning auditoriyani o‘ziga jalb etishi uchun hazil-mutoyiba so‘zlar bilan lirk chakinish qilib, tinglovchilarni hayajonlantira bilishi, agar turli ko‘rgazmali qurollardan foydalansa, har xil epitet, chog‘ishtirish va metaforalarni qo‘llasa, nutqning ta’sirchanligi yanada oshishini, ammo keltirilgan misollar ko‘payib ketib, tinglovchini zeriktirib qo‘ymasligi kerakligini ham ta’kidlaydi.

Aristotel notiqlik can’tini egallashni 5 qismga bo‘lib o‘rgatadi:

Materialni kasf etish(har tomonlama tayyorlash).

Materialni joylashtirish shakli(rejası).

Materialni eslab qolish(o‘zlashtirish).

Materialni so‘z yordamida to‘g‘ri aks ettirish.

Materialni to‘g‘ri talaffuz etish.

Aristotelning fikrlari hozirgi kunda ham o‘z qimmatini saqlab kelmoqda. (5.22-23-b.)

Demosfen. Eramizdan avvalgi 384-323-illarda yashab o‘tgan. U Ainada o‘ziga to‘q oilada dunyoga kelgan. U umrini ona-Vatanining gullab-yashnashiga bag‘ishlagan davlat arbobi, mashhur notiq. Otasining ismi ham Demosfin bo‘lib, qurol-yarog‘ ustaxonasining egasi edi.

Bo‘lajak notiq 5 yoshga to‘lganida otasidan ayrıldi. Demosfen bilan singlisiga otadan katta meros qoladi. Bolalarning tarbiyasi va merosi vaqtincha tog‘asiga topshiriladi. Tog‘a esa barcha boyliklarni qo‘lga kiritib olgach, bolalarning tarbiyasi bilan qiziqmaydi. Natijada Demosfen juda nimjon va kasalmand bo‘lib o‘sadi.

Demosfen voyaga yetgach, tog‘asi unga faqat quillari, uyi va uy jihozlarini hamda pulning ma’lum qisminigina berib aldaydi. Demosfen tog‘asidan mol-mulkning qolganini yaxshilik bilan qaytarib berishini so‘raydi. Biroq tog‘a bundan bosh tortganidan keyin u qolgan merosini sud orqali undirib olishga qaror qiladi. U notiqlik san’atini o‘rganish uchun o‘z davrining meros ishlari bo‘yicha mashhur advokati Isey maktabida ta’lim olishga majbur bo‘ladi. U to‘rt yil davomida qunt bilan o‘qiydi va bu yerda ko‘pgina yozuvchilarning asarları bilan tanishib chiqadi. U ayniqsa, mashhur tarixchi Fukidid va faylasuf Platonning tanlangan asarlarini puxta o‘rganadi. Bo‘lajak notiq Fukidid asarlarini sakkiz marotaba qayta ko‘chirib yozib, uni deyarli yoddan o‘zlashtiradi.

Demosfen o‘qishni tugatgach, vasiylari bilan sudlashadi va sud besh yil davom etadi. Bir necha yil surunkasiga bo‘lgan kurash bo‘lajak notiq xarakterining toblanishida, bir so‘zli va matonatli bo‘lishida katta rol o‘ynaydi.

Demosfen notiqlik bilan shug‘ullanishdan avval o‘z ustozi yo‘lidan borib, boshqalarga sudda so‘zlanadigan nutqning matnini yozib berar edi...Bora-bora nutqiy matnlar yozish Demosfenni qoniqtirmaydi. U otashin vatanparvar sifatida o‘z ijtimoiy faoliyatini Vatan ravnaqi uchun sarflashni orzu qiladi.

Yosh notiqning xalq oldidagi birinchi nutqi ayanchli holda: to‘palon, kulgi, qiyqiriq, hushtak chalib masxaralash bilan qarshi olinadi. U o‘z nutqini tugata olmay tushishga majbur bo‘ladi.

Demosfen nutqining bunday ayanchli tugashi tabiiy edi, chunki uning tovushi juda past, bir oz duduqlanar, “R” harfini talaffuz etolmas, g‘o‘ldirab, mujmal gapirar edi. Bulardan tashqari, uning yelkasini qimirlatib turadigan odati ham bo‘lib, ko‘pchilik orasida o‘zini to‘g‘ri tuta bilmas edi.

Xalq majlislaridan birida Demosfen o‘zini ikkinchi bor sinab ko‘rdi. Lekin bu safar ham muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shundan so‘ng Demosfen o‘z nutqidagi kamchiliklarni boshqa takrorlamaslik uchun astoydil bosh qotiradi. Har kuni bir necha saatlab noto‘g‘ri talaffuz etayotgan so‘zları ustida qayta-qayta mashq qiladi. Hatto og‘ziga tosh solib, qattiq va ravon gapirishga harakat qiladi. “R” tovushini to‘g‘ri talaffuz etish maqsadida kuchuk bolasining irillashini kuzatadi va o‘zi ham xuddi shu tovushni qaytaradi. Nihoyat, uzoq muddatli tinimsiz mashqlardan so‘ng Demosfen o‘z maqsadiga erishadi. Mashhur notiq bo‘lib yetishadi.

Demosfen 30 yoshga to‘lganda davlat ishlarida ham ishtirok eta boshlaydi. U o‘zining butun mahorat va bilimini Vatanning dushmani – makedoniyalik podsho Filippga qaratadi. Afina davlati Makedoniya rahbarligiga o‘tgach, Demosfen dushmanlari qaytadan bosh ko‘taradilar. Aslida bu voqeadan bir necha yil ilgari Xalq partiyasi Demosfening vatanparvarligini yuksak baholab, uni “Oltin gulchambar” bilan taqdirlashga tavsiya etgan, Xalq majlisi ham buni ma’qullab, qaror qabul qilgan edi. Makedoniya tarafdorlari bu qarorga qarshi chiqadilar. Hatto o‘z davrining mashhur notiqlaridan bo‘lgan Esxil majlis qarori ustidan sudga shikoyat qilib ariza beradi. G‘animlarning qarshiligiga qaramay, sud to‘g‘ri va oqilona qaror chiqaradi. Sud hukmiga muvofiq Esxilga katta miqdorda jarima solinib, Afinadan badarg‘a qilinadi.

Suddagi muvaffaqiyatidan so‘ng, Demosfening davlat oldidagi obro‘sni yanada oshadi. Biroq, turli sabablarga ko‘ra, Makedoniya bilan Afina o‘rtasida boshlanib kengan urushda afinaliklar mag‘lub bo‘lib, barcha vatanparvarlar o‘z yurtlaridan badarg‘a qilinadilar. Demosfen sirdan o‘limga mahkum etiladi. Shundan so‘ng u Kalavri oroliga qochib borib, Poseydon ibodatxonasiga yashirinadi.

Dushmanlari Demosfening yashiringan joyidan xabar topib, uni tiriklayin qo‘lga tushirishga harakat qiladilar. Demosfen o‘z dushmanlarining yovuz niyatini fahmlagach, uyga xat yozish bahonasi bilan ibodatxonaning ichkarisiga kirib, zahar ichadi.

Buyuk notiq eramizdan oldingi 322-yilning 12-oktabrida shu tariqa dunyodan o‘tadi. (5. 24-27-b.)

Sitseron. Eramizdan avvalgi 103-43-yillarda yashab ijod etgan. Mark Tulliy Sitseron eramizdan oldingi 103-yilda Rimdan uzoq bo‘lmagan Arpina shahrida badavlat oilada dunyoga keldi. Otasi o‘z farzandiga yaxshi ta’lim-tarbiya berish maqsadida rimga ko‘chib o‘tadi. Sitseron u yerda Yunon murabbiylari qo‘lida tahsil oladi. Yunon tili va adabiyotini mukammal egallagach, Yunonistonning mashhir so‘z ustalari Lisiniy, Kross va Mark Antoniy kabi notiqlardan so‘z san’atining nozik sir-asrorlarini o‘rganadi, ularning ajoyib nutqlarini tinglaydi.

Sitseron uzoq tayyorgarlikdan so‘ng, 25 yoshida birinchi marotaba xalq oldida nutq so‘zlashga jur’at etadi. U avval fuqarolik, so‘ngra jinoiy ish jarayoni bo‘yicha gapiradi. Biroq uning bu nutqiga davlat boshliqlaridan Sull hamda Kott ismli mashhur notiqlar qarshi chiqadi. Shundan so‘ng u ritorika va falsafa fanlaridan mukammalroq nazariy bilim olish maqsadida zamonasining buyuk notiqlaridan hisoblangan Antio Askalonskiydan ta’lim oladi, mashhur so‘z ustalaridan o‘rganish niyatida Kichik Osiyoning bir qancha shaharlarini kezib chiqadi.

Sitseron Osiyoga sayohat qilib, notiqlik san’atining sirlarini o‘rganib yurgan vaqtida Rim hukmdori Sull vafot etadi. Shundan so‘ng yosh notiq Rimga qaytib keladi va 31 yoshidan boshlab davlat ishlarida ishtirok etadi.

Sitseron konsulik lavozimiga saylangach, butun notiqlik mahoratini siyosiy nutqlarga bag‘ishladi. Hukmdor Rull tomonidan qabul qilingan senat qonunlarini qattiq qoralab, Rull tarafdarlariga zarba beradi. Kelgusi yili (59-yil) Sitseron o‘rniga Sezar bo‘lib saylangach, senatning Rull proyektiga juda yaqin bo‘lgan

yangi qonunlari qabul etiladi. Gabini va Pizonlar o‘zлari konsul bo‘lib ish boshlagan 58-yilning dastlabki davrida Sitseronni Rimdan badarg‘a etish haqida hukm chiqarishga harakat qiladilar. Dushmanlari tomonidan qasos olinish muqarrar ekanligiga ishongan notiq Yunonistonga jo‘nab ketadi.

U bir yarim yildan so‘nggina do‘stlarining yordami tufayli Italiyaga qaytib kelish uchun ruxsat oladi. Ona-Vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbat buyuk notiqning ilhomini tag‘in ham jo‘sh urdiradi. U nutq nazariyasi ustida tinimsiz ijod qila boshlaydi. Oradan ko‘p o‘tmay, mashaqqatli mehnat samarasi sifatida, uning uch kitobdan iborat “Notiqlar haqida” nomli asari dunyoga keladi. Mazkur asar dialog shaklida yozilgan...

Sitseronning fikricha, notiq shunchaki sud ishlarinig barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladigan qonunparast emas, balki davlat ishlarini chuqr tushunadigan, xalq qayg‘usiga hamdardlik qila oladigan davlat arbobi bo‘lmog‘i kerak. Shuning uchun notiqlik san’atiga qiziqqan har bir kishi ritorika ilmiga oid ibtidoiy bilimlar bilan cheklanmasdan va o‘zining tabiiy iste’dodiga ishonib qolmasdan, doimo turli fanlarni o‘qib-o‘rganmog‘i, ilm va madaniyatning yuqori chuqqilariga intilmog‘i darkor.

Sitseron “Brut”, “Notiq” nomli boshqa asarlarida Rim notiqlik san’ati tarixi haqida batafsil fikr yuritib, attikachilarning nazariyalariga tamomila qarshi mulohazalar bilan maydonga chiqadi.

Sitseron “kimki jo‘n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida o‘rta darajada, ulug‘ hodisalar haqida esa zavq-shavq bilan gapirsa, shu odam so‘z san’atining chinakam ustasi bo‘ladi” deydi.

Poeziya tilining vazni va ohangdorligi, uzun va qisqa hijolarning, unli va undosh tovushlarning almashinushi, bir so‘zning oxiri va ikkinchi so‘zning boshida ikki unlining qator kelishiga yo‘l qo‘ymaslik, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etish, grammatik qoidalarga katta e’tibor berish kabi notiqlik san’atining muhim masalalari ham Sitseron asarlarida o‘zining to‘la ifodasini topgan.

Tinglovchini toliqtirib qo‘ymaslik uchun nutq davomida ko‘tarinki usulni bir parda pasaytirish, nutq mavzuyiga aloqador shaxslar bo‘lsa, ularning goh salbiy, goh ijobiy xarakteristikasini berish, ilgari o‘tgan mashhur zotlar haqidagi biron latifani eslatib ketish, lozim bo‘lganda, ba’zi bir hayotiy manzaralarni, dramatik voqealarni eslash, o‘rniga qarab biror hikmatli so‘z, maqol va qochiriq gapni qistirib o‘tish – Sitseronning eng sevgan usullaridan edi.

Sezar vafotidan so‘ng davlatni uning nabirasi Oktavian boshqaradi. U o‘z davlatini mustahkamlash maqsadida Sitseronning Senat oldidagi mavqeyi va obro‘sidan foydalanmoqchi bo‘ladi. Biroq Sitseron Oktavianga ishonmaydi. Sitseronning dushmanlari yangi hukmdorni o‘zлari tomonga og‘dirib olgach, undan buyuk notiqni qatl etishni talab qiladilar. Shunday qilib, so‘z san’atining mohir ustasi shafqatsiz jazoga hukm etiladi. Oldin uning o‘ng qo‘li qirqib tashlanadi, so‘ngra boshi tanasidan judo qilinadi.

Sitseronni butun insoniyat oldida ulug‘lab, obro‘sini oshirgan narsa uning ajoyib, takrorlanmas nutqlari bo‘ladi. Uyg‘onish davrida Italiya, Fransiya va Olmoniyaning insonparvar olimlari sitseronning ilhombaxsh nutqlarini sevib o‘rgandilar. O’sha davrda chiroyli so‘zlagan kishilar “sitseronchilar” deb atalar edi.

Rimda bir qancha vaqtgacha notiqlik san'ati rivojlanishdan to'xtab qoldi. O'rta asrlarga kelib esa notiqlikning diniy va sxolastik tomonlari avj olib ketdi. Din homiylari notiqlik san'atini o'z qo'llariga olganlaridan so'ng uni o'zlarining maqsadlarini amalga oshirish uchun xizmat ettira boshladilar.

O'rta asrlarning ikkinchi yarmidan boshlab, ya'ni XI-XII asrlardan "universitet notiqligi" deb nomlangan notiqlik san'ati rivojlandi. Dorilfununning tarix o'qituvchisi Yan Gus ilg'or fikrlari uchun gulkanda yondirilgan.(5, 27-30-b.)

Sharqda notiqlik san'ati tarixi. Notiqlik san'atining fan sifatida tug'ilishi, shakllanishi va taraqqiyoti zaminida Gretsya va Rim notiqlik maktablari muhim o'rin tutadi. Biroq Markaziy Osoyo va Sharqda, aniqrog'i, Turon zaminda joylashgan xalqlarning, jumladan, o'zbeklarning ham notiqlik san'ati tarixi manbalari eramizdan oldingi VII asrlarga borib taqalishi adabiy va tarixiy manbalardan ma'lum bo'lmoqda. Shu ma'noda bizda Turon zaminida yaratilgan Alp Er To'nga dostoni eramizdan oldingi VII asrda paydo bo'lgan ekan, o'zbek notiqligi tarixi ham Yunon va Rim notiqligi tarixidan oldinroq yuzaga kelmaganmikan, degan xulosaga olib keladi.

"Avesto"ning muqaddas kitob sifatida to'la shakllanishi eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi. "Avesto"da notoq foydalanishi lozim bo'lgan o'rinalar juda ko'p.

Sharqda, jumladan, Movarounnahrda badiiy, ilmiy ijodning taraqqiyoti, shuningdek, va'zzonlik, "Qur'on"ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati, ma'nosi va undan maqsadga mufiq foydalanish borasida qadimdan ko'p yaxshi fikrlar aytilgan.

Va'zzonlik, balog'at(chechanlik, notiqlik) san'atining o'suvi barobarida nutq oldiga qo'yilgan talablar mukammallahib bordi. Buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Koshg'riy, Zamashshariy, Abu Ya'qub Sakkokiy tilga, lug'tga, grammatika va mantiqshunoslikka bag'ishlangan asarlar yozdilar yoki boshqa sohalarga doir asarlarida bu mavzuga aloqador fikrlar bildirdilar.

Abu Rayhon Beruniy. Buyuk qomusiy olim Beryniy(973-1048) o'zining "Geodeziya" asarining kirish qismida fanlarning paydo bo'lishi va tarmoqlanib ko'payishi haqida so'z yuritib, har bir fanning inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi blan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning hosilasidir. Beruniy nutqning ikki xil – nasr, nazm ko'rinishi borligini ta'kidlaydi. Nutqning bu turlari ma'lum qoidalar asosida shakllanadi. Nasr nahv qonun-qoidalari, nazm aruz talablariga binoan tuziladi. Aruzga qaraganda nahvning ta'sir doirasi keng, u nasr uchun ham, nazm uchun ham zarur.(5, 37-b)

Abu Nasr Forobi(870-950) to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo'rliги haqida yozib qoldirgan.

Abu Abdulloh al-Xorazmiy ham o'zining "Mafotix-ul-ulum" asarida o'sha davr notiqligining ba'zi bir masalalari, adabiyotshunoslik fani istilohlari, ularning

ta’rifi haqida, shuningdek, devonxona ish qog‘ozlari va ularning shakllari, ishlataladigan atamalari haqida ma’lumot beradi.

So‘zning qadri, undan foydalanish, kam so‘zlab, ko‘p ma’no yuklash, ravshan fikrlash kabi masalalar uastida XII-XIII asr mutafakkirlari **Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiylar** ham ibratli fikrlar bildirganlar.(5, 38-39-b)

Notiqlik – o‘tmish so‘z san’atining eng barkamol ommabop janrlaridan bo‘lib, bu san’atni musulmon sharqida voizlik deb atashgan. Shunga ko‘ra nutq – va’z, notiq – voiz deb yuritilgan.

IX-X asrlarda yashab ijod etgan qomusiy olimlar ayni paytda notiq ham bo‘lganlar, notiqlikning tug‘ilshi, shakllanishi va rivojiga ham katta e’tibor bergenlar.

Bulardan tashqari, XI asrda Kaykovus tomonidan yaratilgan “Qobusnama”da ham notiqlik san’atiga bat afsil to‘xtalib o‘tilgan. Hatto muallif barcha hunarlar ichidan so‘z hunarini – notiqlikni ulug‘laydi.

Ilgarilari podshohlar el oldiga chiqib davlat tuzumi, itoatkorlik, xalqaro ahvol, diniy qoidalar, o‘z siyosatlari va boshqa mavzularda nutq so‘zlaganlar. Ayniqsa, juma namozi kunlari ularning chiqib, nutq so‘zlashlari shart bo‘lgan. Vaqtlar o‘tishi bilan bunday ishlarni maxsus so‘z ustalariga topshira boshlaganlar. Alisher Navoiy o‘zining “Majolisun nafois” asarida bunday notiqlardan Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy va Husayn Voiz Koshifiy larga alohida tavsif bergen.

Xoja Muayyad Mehnagiy o‘z zamonasining yetuk notiqlaridan bo‘lish bilan birga, oddiy mozor shayxlaridan bo‘lgan. U yuzadagi ilmlar, o‘ziga ayon bo‘lgan fanlarning hammasini o‘zlashtirgangina emas, balki ularni to‘ldirgan va rivojlantirgan ham edi. Uning va’zlari jo‘shqin o‘tgan, o‘z tinglovchilarida nutqiga nisbatan xayrixohlik qo‘zg‘ata olgan. Shuning bilan birga u tinglovchilar qalbiga qo‘l sola olgan, ularning har birini faqatgina tinglovchilikdan faol fikr yurituvchi, va’z mazmuniga nisbatan faol munosabatda bo‘luvchi ijodkor tinglovchilar darajasiga ko‘tara olgan. O‘z majlislarining qizg‘in o‘tishiga erisha olgan.

Mavlono Riyoziy Zova deb atalgan viloyatda o‘sdi, ulg‘aydi. O‘zining aql-zakovati bilan shu viloyatning qozisi lavozimigacha ko‘tariladi. Biroq u ayrim xatti-harakatlari uchun qozilik lavozimidan chetlshtirilgan, kishanga solinib badarg‘a qilingan. Natijada bir umr ta’qib ostida yuradi, g‘ariblikda kun kechiradi. Mavlono Riyoziy nutq paytida ko‘z yoshi to‘kish darajasiga yetib borar ekan, qalbidagini yig‘lab bayon etar va kishilarni shunga ishontira olar ekan. U juda iste’dodli notiq, chinakam so‘z san’atkori bo‘lgan.

Mavlono Riyoziy ajoyib so‘z san’atkori bo‘lish bilan bir qatorda, o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan pedagoglaridan biri bo‘lgan. U o‘z ishlarini dunyoviy fanlar: tabiatshunoslik, geografiya, tarix, adabiyot nazariyasi va boshqa fanlarni chuquq o‘rganib, ularni yoshlar o‘rtasida ratg‘ib qilgan.

O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan Mavlono Riyoziy o‘z nutqlarida boshqa notiqlar qatori xalq og‘zaki ijodidan, ayniqsa, badiiy adabiyotdan juda ustalik bilan foydalangan. U o‘z zamonasining zabardast notig‘i, olimi, pedagogi va shoirlaridan bo‘lgan.

Husayn Voiz Koshifiy Alisher Navoiyning zamondoshi, u bilan bar davrda yashagan, ijod qilgan. Husayn Voiz Koshifiyning eng asosiy fazilati uning ilm egasi ekanligidadir. U juda ko‘p fanlarni egallagan va ularning har birida chuqr ilmiy-tadqiqotlar olib borgan mashhur olimlardan biridir. Quyidagi asarlar uning qalamiga mansub: “Javohirut tafsir” yoki “Tafsiri Husayniy”, “Mavohibud dunyo”, “Lubbi lubob”, “Anvori Suhayliy”, “Ravzatush shuhado”, “Dah majlis”, “Axloqi Muihsiniy”, “Mavzonul insho”, “Sabo”, “Koshifiya”, “Asrori Qosimiy”, “Hotamnoma”, “Matla’ul anvor”, “Ixtiyoriyot”…

Husayn Voiz Koshifiyning nutqini eshitish uchun odamlar shaharning turli tomonlaridan yig‘ilishar, tinglovchilar soni shu qadar ko‘payib ketishi natijasida orqada turganlarga notiqning ovozi yetib kelolmasa ham, uning ichki ruhiy holatini turli holatlar orqali ifodalanishini kuzatar ekanlar.

O‘z zamonasining ulkan so‘z san’atkori Husayn Voiz Koshifiyning yuksak mahoratiga hatto Alisher Navoiy va Husayn Boyqarolar ham qoyil qolib tan bergenlar, hatto o‘z asarlarini rasmiy ijro etish lozim bo‘lganda, unday ishga Husayn Voizni munosib ko‘rganlar.

Xondamirning aytishiga qaraganda, u juma kuni ertalab Hirotning markaziy chorsusida joylashgan shoh namozgohida va’z aytgan, shu kuni peshindan keyin Alisher Navoiyning masjidida, seshanba kuni Sulton Husaynning madrasasida, chorshanba kuni pir Mujarrad Xoja Abdul Valid Ahmad mozori boshida, payshanba kuni Sulton Ahmad Mirzo mozori boshida nutq so‘zlagan.

Bularning barchasi, notiqning har tomonlama bilimdonligidan va jahonning baland-pastini yaxshi bilganligi, uning nutqining setmazmun bo‘lishini ta’minlaagan omillardan biridir.(4, 16-21-b.)

Og‘zaki ijrochilik, ifodali o‘qish va nutq odobi. Badiiy adabiyot paydo bo‘lishi bilan uning ifodali o‘qilishi, og‘zaki ijrochiligi ham maydonga keladi. Badiiy so‘z san’atkori xalq o‘rtasida ijodkor emas, balki ijrochi sifatida ko‘proq e’tiborga ega bo‘lgan. Jumladan, “Avesto”ning yaratuvchilari, bora-bora uning professional ijrochilariga aylanib qolgan kohinlar toifasi xalq orasida adiblar sifatidagina emas, balki jonli so‘z sehri bilan mo‘jizalar ko‘rsatuvchi mutaxassislar sifatida ham katta e’tibor qozonganlar. Tarixiy taraqqiyot davomida adabiyot bilan birga ijrochilik san’ati ham rivoj topa boradi. Masalan, O‘rta Osiyoda shoirlar bilan bir qatorda, ularning asarlarini majlis-anjumanlarda, keng mehnatkash xalq orasida ijro etuvchi san’atkorlar – roviylar toifasi paydo bo‘ladi.

O‘zbek badiiy so‘z ijrochiligi san’atiga xos bo‘lgan bedilxonlik, navoiyyxonlik, fuzuliyxonlik, mashrabxonlik bilan birga, qissago‘ylik, hikoyago‘ylik, latifago‘ylik, navhagarlik, ertakchilik, kulgili hikoyago‘ylikning taraqqiyoti bu san’tning juda qadimiy va boy tarixga, ma’lum an’anaga ega ekanligini anglatadi.

Xalq og‘zaki ijodida baxshilarning tutgan o‘rni alohida ahamiyatga ega. Ular o‘nlab, yuzlab xalq dostonlarini yoddan aytib yurganlar.

O‘rta Osiyo xalqlari pedagogikasi tarixida ifodali o‘qish san’atiga bo‘lgan e’tibor alohida mavqe kasb etadi.

XX asr boshlaridan O‘zbekistonda ifodali o‘qish sahnadan keng o‘rin ola boshlaydi. Hamza, Avloniy, Mannon Uyg‘ur singari yetuk pedagog-rejessorlar va

ularning iste'dodli shogirdlari badiiy o'qishni sahnaga olib chiqdilar. Ular teatr sahnalarida, spektakllar boshlanishidan oldin yoki antrakt paytida parda oldiga chiqib she'rxonlik qilardilar.

Hamza, Avloniy va Ayniylar o'zлari ochgan yangi usuldagи mакtab o'quvchilari uchun "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Adabiyot yoxud milliy she'rлar", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" kabi o'qish kitoblari yaratgan edilarki, ularda ifodali o'qishga alohida e'tibor berilgan.

Keyingi dasturlar va qo'llanmalar yanada takomillashtirildi va ifodali o'qish san'atiga bo'lган e'tibor muntazam ortib bordi. Bugungi kunga kelib, ifodali o'qish san'atining bolalar bog'chasidan boshlab oliv o'ruv yurtlarigacha dasturli tarzda mustahkam o'rin egallaganligi va fanning bu sohasiga oid turli qo'llanma hamda xrestomatiyalar yaratilayotganligi ifodali o'qish san'atiga bo'lган e'tiborning yorqin namunasi bo'la oladi.(4, 4-7-b.)

Adabiyotlar

1. Кўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. – Т.: Фан, 1992, 3-24-б.
2. Қудратов Т. Нутқ маданияти асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1993, 4-34-б.
3. Бегматов Э. ва бошқалар. Ўзбек нутқи маданияти очерклари. – Т.: Фан, 1988, 3-72-б.
4. Орипов К., Обидова М. Ифодали ўқиши. – Т.: Ўқитувчи, 1994, 4-21-б.
5. Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati asoslari. – Т.: Yangi hayot, 2008, 16-40-b.
6. Mahmudov N. O'qituvchining nutq madaniyati. – Т.: Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona nashriyoti, 2007.
7. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Т.: Ўқитувчи, 1980.
8. Элмуродов Н. Ўқитувчининг нутқ маданияти. – Самарқанд: 2003, 11-25-б.
9. Ҳожиев А. Ўзбек тилининг лингвистик лугати. – Т.: ЎзР МЭ, 2002.

3-mashg‘ulot.

Mavzu: Adabiy til, shevalar va nutq madaniyati. 2 soat.

Reja:

1. Mavzuga doir asosiy tayanch so‘zlar, terminlar va iboralar.
2. O‘zbek adabiy tili va uning taraqiyot bosqichlari.
3. O‘zbek milliy tilining manbayi bo‘lgan lahjalar.
4. O‘zbek xalq shevalari.
5. Nutqning og‘zaki va yozma shakllari.
6. Og‘zaki nutqda fonetik, leksik, grammatik normalar.
7. Adabiyotlar.

Mavzuga doir asosiy tayanch so‘zlar, terminlar va iboralar:

Xalq tili, milliy til, adabiy til, shevalar, lahjalar, tillar oilasi, tillar guruhi, aloqa vositasi, so‘zlashuv, mutolaa qilish, tinglash, fonetik jarayon, leksik jarayon, grammatik jarayon, linvistik faktorlar, ekstralengvistik faktorlar, lug‘at boyligi, lug‘at tarkibi, leksik qatlamlar, umumturkiy so‘zlar, o‘zbekcha so‘zlar, o‘zlashma qatlam, arabcha so‘zlar, forscha-tojikcha so‘zlar, ruscha-baynalmilal so‘zlar, terminlar.

Adabiy til umumxalq tilining ishlangan, sayqallashtirilgan ma ma’lum normalarga solingen shaklidir. Demak o‘zbek adabiy tili o‘zbek tilining dialektlari, oddiy so‘zlashuv tili va jargonlaridan tamoman farqlanadi, shu xalq vakillari uchun umumiyligi bilan xarakterlanadi.

O‘zbek adabiy tilining tarixi uch katta davrni o‘z ichiga oladi: 1. Qadimgi turkiy adabiy til. 2. Eski o‘zbek adabiy tili. 3. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.

Qadimgi turkiy adabiy til X-XII asrlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbek adabiy tili dastlabki davrlarda umumturk adabiy tili sifatida X-XI asrlarda tashkil topgan. Darhaqiqat, qadimgi adabiy tilimizning eng nodir namunalaridan bo‘lgan “Qutadg‘u bilig”, “Hibatul haqoyiq”, “Devonu lug‘otit turk” kabi dunyoga mashhur bo‘lgan yodgorliklarimiz ham bu fikrni tasdiqlaydi. Lekin bu davr adabiy tili faqat o‘zbeklarning, ya’ni faqat o‘zbek xalqiga mansub bo‘lgan kishilarninggina adabiy tili bo‘lmay, O‘rta Osiyoda yashovchi barcha turkiy xalqlarning umumiyligi adabiy tili bo‘lgan. Shuning uchun ham bu adabiy til qadimgi turkiy adabiy til deb ataladi va unga umumturkiy adabiy til sifatida qaraladi.

Eski o‘zbek adabiy tili XIII-XV asrlarda shakllangan bo‘lib, XX asrning boshlarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr adabiy tilining shaklanishi va rivojlanishida Alishet Navoiyning o‘rni nihoyatda kattadir.

Eski o‘zbek adabiy tili, asosan, XIII asrdayoq shakllanib ulgurgan edi. Bu davr adabiy tili ko‘p jihatdan o‘zining xalq tiliga yaqinligi bilan ko‘pgina olimlarning e’tiborini o‘ziga tortib keladi. Darhaqiqat, XIII-XIV asrlarda yaratilgan adabiy yodgorliklarning tili, jumladan, Lutfiy, Atoiy, Durbek, Xorazmiy asarlarining tili Alisher Navoiy tiliga nisbatan hozirgi adabiy tilimiz va jonli xalq tiliga ba’zi hollarda ancha yaqin turishi va tushunilishining birmuncha yengilligi bilan xarakterlanadi. Buning ham o‘z sabablari bor. Masalan, nomlari tilga olingan shoirlarning ko‘pchiligi Alisher Navoiyga nisbatan asosiy aholisi to‘la o‘zbekcha gaplashgan joylarda yashaganlar. Ikkinchidan, Alisher Navoiy go‘dakligidanoq arab-fors maktabi muhitida ta’lim-tarbiya olgan, shuning uchununing ijodiga bu muhit o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Uchinchidan, Alisher Navoiy boshqa shoirlaga nisbatan juda ulkan muammolarni ko‘tarib chiqqan va hayotning juda ko‘p sohalariga qo‘l urgan. Shubhasizki, muammolarning murakkabligi, keng ko‘lamliligi va xilma-xilligi han qisman bo‘lsa-da, uning asarlari tilida, xususan, leksikasida o‘z aksini topgan.

Shunga ko‘ra, umuman olganda, eski o‘zbek adabiy tili Navoiygacha shakllangan edi deyish mumkin. Chunki bu til O‘rta Osiyoning sharqida ham, shimolida ham, qisman janubida ham mavjud edi va qo‘llanishda edi. Lekin u Navoiy davri va darajasida bir butun adabiy til sifatida ishlanmagan, shakllanmagan va rivojlanmagan edi. Eski o‘zbek adabiy tilining bir butun til sifatida to‘la shakllanishi va keng ko‘lamda rivojlanishi Navoiy nomi va xizmatlari bilan bog‘liqfir.

Alisher Navoiy o‘zining jahonga mashhur durdona asarlari bilan o‘zbek adabiy tilini badiiy so‘z mahorati, badiiy va amaliy stilistika nuqtayi nazaridan jahon miqyosiga olib chiqqan bo‘lsa, “Muhokamatul lug‘atayn” singari noyob asari bilan eski o‘zbek adabiy tilini, uning badiiy stilistikasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berdi, eski o‘zbek adabiy tilining o‘sha davrdagi normativ holatini va kelgusi istiqbolini amalda birinchi bo‘lib, ilmiy asosda belgilab berdi. Ona tilining o‘z ichki resurslaridan, ichki imkoniyatlaridan keng foydalanish masalasini ko‘tarib chiqdi. Ayni vaqtda Alisher Navoiy o‘zining bu asarida birinchi marta adabiy tilni boshqarish muammosini o‘rtaga tashlab, uni o‘z zamonasiga nisbatan eng yuqori darajada hal qilib berdi.

Alisher Navoiyning eski o‘zbek adabiy tilini rivojlantirishdagi buyuk xizmati shunda ediki, u bu tilda jahon adabiyoti xazinasining durdonalaridan bo‘lib qolgan asarlar yaratdi va bu tilni o‘sha davrning eng barkamol tillaridan bo‘lgan arab va fors tillari darajasiga ko‘tardi. Shu bilan birga, bu tilning imkoniyatlari arab va fors tillarining imkoniyatlaridan aslo qolishmasligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslabgina qolmay, uni amalda o‘z ijodi namunasida tasdiqlab ham berdi. Navoiy o‘zigacha bo‘lgan adabiy til doirasini kengaytirdi, uning shaklini mukammallashtirdi, badiiy vositalarini ko‘paytirdi, ularni kamolot bosqichiga ko‘tardi.

Alisher Navoiy eski o‘zbek adabiy tilida juda ko‘p yangi shakllar, yangi uslublar yaratdi, shimol, sharq va janubdagagi tarqoq holdagi adabiy tilning shakllarini birlashtirib, uning xizmat qilish doirasini yanada kengaytirdi. U o‘z davrining mukammal adabiy til normasini yaratdi. Navoiy bu haqda faxrlanib:

Olibmen taxti farmonimg‘a oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.

Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdur,
Muayyan turk ulusi, xud meningdur...
Ko‘ngil bermish so‘zimga turk, jon ham;
Ne yolg‘iz turk, balkim turkmon ham.

Yoki:
Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam
deb yozganida tamomila haqli edi.

Eski o‘zbek adabiy tilining yuksak darajada rivojlanishida hech kim Alisher Navoiychalik xizmat qilgan emas. Ana shu ma’noda Alisher Navoiy haqli ravishda o‘zbek adabiy tilining asoschisi hisoblanadi.

Alisher Navoiydan keyin uzoq vaqtgacha eski o‘zbek tilining deyarli o‘zgarmay qolganligi ham shu bilan izohlanadi. Ikki xonlik va ikki adabiy muhitda ta’lim ko‘rganligiga qaramasdan, Alisher Navoiy g‘azallari tili bilan Muhammad Shayboniy g‘azallarining tili bir-biridan aytarli farq qilmaydi. Alisher Navoiy asarlari tilidan hatto undan bir-ikki asr keyin yashagan Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Solih, Nishotiy, Muhammad Xoksor singari shoirlar asarlarining tilida ham deyarli farq yo‘q. Faqat Mashrab, Nodirabegim, Uvaysiy asarlari tiligina Navoiy asarlari tiliga nisbatan biroz soddaroqligi va tushunarligi bilan farq qiladi. Hatto XIX asrning oxirlarida yashagan muqimi, Furqat, maxmur va Avaz O‘tarlarning asarlari tilida ham Navoiy asarlari tilining murakkabligi asosan saqlanib qolganligi kuzatiladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili - o‘zbek millatining milliy adabiy tilidir.

Ma’lumki, tildagi o‘zgarishlar to‘satdan bo‘ladigan “portlash” yo‘li bilan emas, balki asta-sekin eskining to‘la borishi, mukammallahuvi yo‘li bilan yuz beradi. Bunda, shubhasiz, ba’zi bir eski so‘zlar va shakllar arxaiklashib, iste’moldan chiqqa boradi. Lekin, umuman olganda, til hodisalari vaqt va tarix sinovlariga juda katta bardoshli bo‘ladi.

XX asrning boshlarida tom ma’nodagi hozirgi o‘zbek adaboy tili yuzaga kela boshladi. Adabiy tilning lug‘at tarkibi tez sur’atlar bilan boyidi, grammatik qurilishi yanada sillqlashib, xizmat qilish doirasi va stilistik imkoniyatlari kengaydi. Shu bilan bir qatorda eski adabiy til zaminida qadimdan rivoj topgan stil bilan bir qatorda ilmiy va publisistik stil hamda rasmiy ish stilining juda ko‘p turlari va tarmoqlari paydo bo‘ldi. Adabiy tilda yangidan yaratilgan juda ko‘p zamonaviy termionlar bilan bir qatorda, yangi terminologiya ham yuzaga keldi. Aadabiy tilning xalq tili bilan aloqasi kuchaydi. Natijada o‘zbek millatining zamonaviy, yetuk, mukammal va barkamol adabiy tili yuzaga keldi, ulg‘aydi va taraqqiy etmoqda.(5. 7-10-bet)

O‘zbek milliy tili hozirgi o‘zbek millatiga mansub bo‘lgan hamma kishilarning umumiyligi va yagona tilidir. O‘zbek milliy tilining shakllanishi o‘zbek millatining shakllanish jarayoni bilan bog‘liq. O‘zbek millati shakllangunga qadar u urug‘ tili, qabila tili va elat tili tarzida rivojlanib kelgan. XIX asrning oxiri XX asrning boshiga kelib o‘zbek xalqi millat tarzida shakllandidi va shu davrdan uning milliy tili vujudga keldi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining boyishi, rivojlanishi va mukammallashuvida eski o‘zbek adabiy tili an’analari, xalq tili, xalq shevalarining materiallari bilan bir qatorda boshqa tillarning ham ta’siri sezilarli bo‘ldi.

Yuqorida bayon qilinganlarga ko‘ra, o‘zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyoti katta uch davrni tashkil etadi: 1. Qadimgi turkiy adabiy til. 2. Eski o‘zbek adabiy tili. 3. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Bularning har biri yagona umumxalq o‘zbek tilining asosiy va eng muhim taraqqiyor bosqichlarini o‘zida aks ettiradi. Har bir davrning adabiy tili ish ko‘rish doirasi, fonetik, leksik hamda grammatik qurulishi jihatrdan o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari bilan farq qiladi. O‘zbek adabiy tili birinchi va ikkinchi davrlarda xalq tili sifatida ish ko‘rgan bo‘lsa, uchinchi davrga kelib, milliy til sifatida ish ko‘rayotir. Hozirgi kunda uning ish ko‘rish doirasi nihoyatda kengaygan, lug‘at tarkibi beqiyos darajada boyigan, grammatik qurilishi mukammallashgandir.

O‘zbek milliy tili – ko‘p lahjali til. O‘zbek milliy tili ko‘p lahjali til hgisoblanadi. Bu hol uning o‘ziga xos murakkab tarixiy rivojlanish sharoiti va o‘zbek millatining o‘tmishdagi xilma-xil etnik tarkibi bilan izohlanadi. O‘zbek milliy tilining uchta lahjalar guruhi bor: 1. Qorluq-chigil-uyg‘ur lahjasi. 2. Qipchoq lahjasi. 3. O‘g‘uz lahjasi. Bularning har biri o‘ navbatida bir qancha shevalarga bo‘linadi.

O‘zbek tilining lahja va shevalari uzoq o‘tmishda o‘zbek xalqining tarixiy sharoiti bilan bog‘liq ravishda o‘zaro umumiylit kasb etib, yagona o‘zbek umumiylit xalq tili bo‘lib birika borgan. Shu bilan bir qatorda o‘zbek tilining lahjalari va ayrim shevalari orasidagi farqlar hozirgi vaqtgacha ham saqlanib qolgan. Masalan, o‘zbek tilining qipchoq shevalarida singarmonizm xususiyatining to‘liq saqlanib qolganligi, 9 ta unli fonemaning mavjudligi, so‘z boshida **y** undosh tovushi o‘rnida **j** tovushining qo‘llanilishi, **f** undosh tovushining deyarli qo‘llanmasligi, so‘z o‘rtasida va oxirida **g‘** undosh tovushining ko‘pincha **v** tovushiga o‘tishi, ba’zi hollarda so‘z oxirida **g‘**, **q**, **k** undosh tovushlarining tushib qolishi, ba’zan esa **o** unli tovushining **a** sifatida(**jay**, **chsay**, **chach** kabi), ba’zan **I** undosh tovushining so‘z o‘rtasida tushib qolishi(**kesa**, **osa**, **bo‘s**a kabi), ba’zi hollarda o yoki a unli tovushining **I I** tovushi bilan almashinish(**bordimi** – **bordima**, **menmi** – **menba**), e unli tovushining o‘ ga o‘tishi(**bedana** – **bo‘dana**, **belanchak** – **bo‘lancak** kabi); morfologik jihatdan qaraganda, 6 ta kelishik qo‘shimchalarining to‘liq saqlanganligi, II shaxs o‘tgan zamon fe’lida oddiy va hurmat shakllarining saqlanib qolganligi, o‘tgan zamon fe’lining III shaxs ko‘plik shaklining deyarli ishlatilmasligi; leksik tomondan qaraganda, qipchoq shevalarida checha – yanga, bo‘la – xolavachcha, jelak – boshga yopinadigan kiyim, qog‘onoq – uvuzning qotgan turi, uvuz – qo‘y va sigirlarning tug‘gandan keyingi dastlabki quyuq suti, tulup – junli issiq po‘stin, bosma – junli issiq chakmon, lochira, g‘ilmindi, kulchatoy, janchmich – ovqat turlari singari ko‘plab o‘ziga xos qadimiy so‘z va terminlarning saqlanib qolganligi yuqorida aytilgan fikrlarni tasdiqlaydi. Shunga o‘xhash xususiyatlar o‘zbek tilining deyarli har bir lahja va shevasida saqlangan. Masalan, Toshkent shevasida singarmonizm qonuni buzilgan, 7-8 unli fonema saqlanib qolgan, shuningdek, h undosh tovushi deyarli qo‘llanilmaydi. Uning o‘rnida x tovushi qo‘llanadi. **A** unli tovushi esa **e** ga o‘tadi(**ayt** – **et**, **borginda** –

borginde kabi), ba’zan **a** unli tovushi **I** ga o’tadi(*bormaydi – bormiydi, bo’lmaydi – bo’lmiydi* kabi), so‘z oxirida **k** undosh tovushi ko‘pincha **y** ga o’tadi(*eshik – eshiy, o’rdak – o’rday* kabi), ba’zan **v** ga o’tadi(*bordik – borduv, keldik – kelduv* kabi). Progressiv assimilatsiya hodisasi juda ko‘p uchraydi(*bizni – bizzi, kamarni – kamari, oshni – oshshi* kabi); morfologik jihatdan qaraganda, kelishiklar soni asosan beshta; hozirgi-kelasi zamon I shaxs ko‘plik shaklidagi shaxs-son affaksi – miz –vuz tarzida qo’llanadi(*borovuz, ishlayvuz, kelavuz* kabi); hozirgi zamon fe'l shakli –vot affksi yordamida yasaladi(*ishlavotti, kevotti* kabi).

Samarqand, Buxoro shahar tipli shevalarda esa ahvol yana boshqacharoq. Ular, birinchi navbatda, tojik tilining kuchli ta’siriga uchraganligi bilan xarakterlanadi. Ularda 6 ta unli fonema saqlanib qolgan; til orqa **o‘** va **i** fonemalari deyarli butunlay yo‘qolgan; kelishiklar soni ham to’rttaga kelib qolgan, ularning leksik qatlamida esa arabcha, ayniqsa forascha-tojikcha so‘zlar ko‘p.

Lekin bunday o‘ziga xos tafovutlarga qaramay, o‘zbek tilining hamma lahja va shevalari juda ko‘p o‘xshashliklar va umumiy tomonlarga ega bo‘lganligi bilan xarakterlanadi. Ular o‘zbek milkliy adabiy tilini yanada boyitish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham ularga o‘zbek milliy tilining ichki manbasi sifatida qarash va ulardan unumli foydalanish talab qilinadi.

O‘zbek adabiy tili lahjalari orasida, odatda, qorliq-chigil-uyg‘ur lahjasidagi hamda unga qarashli bo‘lgan ayrim shevalar o‘zbek adabiy tilining tauanch sheva va lahjalari hisoblanadi. Bunda ularning talaffuz normalarini belgilashdagi roli, ko‘pgina terminlarning ularda ilgaridan shakllanganligi, bu sheva vakillarining ko‘p jihatdan milliy madaniyat va leksik an‘analarimizni boshqarishda o‘zlariga xos xizmatlari borligi asosga olingan. Ma’lumki, qorluq-chigil lahjasiga Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Namangan, Qo‘qon, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Qarshi, O‘sh, Marg‘ilon, Jalolobod va boshqa shaharlarning shevalari kiradi. Lekin o‘zbek tilining birorta shevasini hamadabiy tilga hamma jihatdan asos bo‘lgan deb aytib bo‘lmaydi. Chunki o‘zbek tilining hamma lahja va shevalari adabiy til taraqqiyotiga ma’lum bir hissa qo‘sghan, ikkinchi tomonidan, ularning har birida juda ko‘p o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Shunga ko‘ra aytish mumkinki, o‘zbek adabiy tilining rivojlanishida barcha lahja va shevalar manba bo‘lib xizmat qilgan. Bunda qorluq-chigil lahjasiga oid shevalar yetakchu manba rolini o‘ynagan.

Shu narsani ham alohida qayd qilib o‘tish kerakki, keyingi asrda xalq shevalari bilan adabiy tilning o‘zaro yaqinlashuv jarayoni kuchaydi. O‘zbek xalqining yoppasiga savodxon bo‘lishi, uning turmush tarzining tubdan o‘zgarganligi umumiy o‘rta va oliv ta’lim, vaqtli matbuot, barcha adabiyotlar, radio va televideniniye, turli ma’ruza va suhbatlarning adabiy tilga asoslanganligi, nutq madaniyati sohasida amalga oshirilayotgan tadbirlar – bularning hammasi o‘zbek adabiy tili bilan uning shevalari o‘rtasidagi tafovutlarni keskin kamaytirdi, bu shevalarning silliqlashuviga va adabiy til bilan yaqinlashib, uning doirasiga tobora chuqurroq singa borishiga xizmat qildi va xizmat qilmoqda.

Demak, o‘zbek adabiy tilining rivojlanishi va yanada boyib, mukammallahuvida yetakchi qorluq-chigil lahjasi shevalari bilan bir qatorda boshqa lahja va shevalarning ham ichki manba sifatida o‘ziga xos o‘rnii va roli bor.(5.10-13-betlar)

Nutqning og‘zaki va yozma shakllari. Ma’lumki, adabiy tilning ikki xil – og‘zaki va yozma shakllari bor.

Og‘zaki adabiy til eng qadimgi shakl bo‘lib, qadimgi xalq qo‘shiqlari, dostonlari, ertaklari, cho‘pchaklari, latifalari, xalq maqollari, matallari va topishmoqlarining deyarli hammasi ana shu xalq og‘zaki adabiy tilida yaratilgan va og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan.

Yozma adabiy tilning paydo bo‘lishi, odatda, biror xalqning yoki bir guruh xalqlar yozuvining, ancha rivojlangan yozma adabiyotning, shuningdek, ma’lum bir an'anaga ega bo‘lgan madaniyatning mavjudligi bilan bog‘liq. Yozma o‘zbek adabiy tili tarixan ancha ilgarigi davrlardayoq, ya’ni turkiy adabiy til sifatida X-XI asrlardayoq, o‘zbek xalqining o‘z adabiy tili sifatida esa XIII asrdan boshlab mavjud bo‘lgan. Yozma adabiy til qoidalari til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida joriy qilingan bo‘lib, aniq shakllangan til shakli hisoblanadi.

Adabiy tilning yozma shakli kishilar orasida bevosita aloqa vositasi bo‘lmay, boshqa joyda va zamonda yashovchi kishilar bilan aloqa bog‘lash vositasi hamdir. Shu jihatdan yozma adabiy til uchun masofaning va zamonning ahamiyati yo‘q.

Shuni alohida qayd qilib o‘tish kerakki, qadimgi davrlarda og‘zaki adabiy til bilan yozma adabiy tilning aloqasi juda kuchsiz bo‘lgan. Bu hol o‘sh davrlarda yozma adabiy tilni mukammal egallagan savodli kishilarning juda ham ko‘p bo‘lмаганлиги sabablidir. Xalq ijodchilarining ko‘pchiligi asosiy aloqa vositasi sifatida og‘zaki adabiy tildan foydalangan. Xalq dostonlari, ertaklar, xalq qo‘shiqlari va maqollarning ko‘pchiligi og‘zaki adabiy til vositasida yaratilgan. XX asr boshlariga kelib eski o‘zbek yozma adabiy tili keng xalq tili asosida qayta ishlab chiqildi. Adabiy tilning yozma shakli xalq tiliga va og‘zaki adabiy tilga yaqinlashtirildi. Buning ustiga butun aholi o‘qitilib, yoppasiga savodxon qilindi. Maktab va teatrarda, radio eshittiruv va teleko‘rsatuvlarda, keng jamoatchilik orasida yozma adabiy tilning xalq tili asosida ishlab chiqilgan yangi shakli keng qo‘llana boshladи.(5.23-24-betlar)

Adabiy tilning tilga olib o‘tilgan shakllari nutqiy faoliyat nuqtayi nazaridan: **yozma nutq** va **og‘zaki nutq** deb ham yuritiladi.

Nutqning bu ikkala shakli ham yagona adabiy til normalariga tayanib ish ko‘radi. Shu sababli ularda mushtarak lug‘aviy normalar, umumiyl morfologik, sintaktik vosita mavjud. Ammo yozma nutq amal qiladigan imloviy, punktuatsion normalar og‘zaki nutqda, og‘zaki nutq amal qiladigan talaffuz normalari yozma nutqda yo‘q yoki yetakchi rol o‘ynamaydi. Shu sababli ham nutq madaniyati sohasida yozma nutq madaniyati, og‘zaki nutq madaniyati deyiladigan tushunchalar mavjud.

Yozma nutq doirasiga ilmiy nutq, rasmiy nutq, publisistik nutq, qisman badiiy nutq, shuningdek radio va televideniye uchun tuzilgan yozma matnlar tili kiradi. Nutqning keltirilgan vazifaviy tiplari ba’zan ilmiy til, rasmiy til, m badiiy til deb ham yuritiladi.

Og‘zaki nutq dastlab ikki turga ajratiladi: 1. Oddiy so‘zlashu nutqi; 2. adabiy so‘zlashuv nutqi.

Oddiy so‘zlashuv nutqi o‘zbek tilida tabiiy holda mavjud bo‘lgan og‘zaki nutq ko‘rinishlaridan iborat. Masalan, turli o‘zbek sheva va lahjalari tili, shevachilik unsurlari ta’sirida bo‘lgan kundalik so‘zlashuvning boshqa xil ko‘rinishlari va b.

Oddiy so‘zlshuv nutqining til asosini adabiy til tashkil etmaydi. Shu tufayli oddiy so‘zlashuvdan nutq madaniyati talab qilinmaydi.

Adabiy so‘zlashuv nutqi adabiy tilning og‘zaki nutq doirasidagi vazifalardan yuzaga keladi. Adabiy so‘zlashuv nutqi – adabiy til madaniyatiga, ya’ni adabiy til normalariga amal qilgan holda gapirishdir. Ammo adabiy tilda so‘zlash adabiy tilda yozishga nisbatan ancha qiyinchilik bilan erishiladigan jarayondir. Buning bir qator sabablari bor. 1. Og‘zaki nutqda shevachilikning ta’siri kuchli bo‘ladi. 2. Og‘zaki nutqda yozma nutqdagi kabi o‘ylab ish tutish imkonini kam bo‘ladi. 3. Og‘zaki nutqning o‘ziga xos grammatik tuzilishi, qurilish tartibi mavjud(chunonchi, gap bo‘laklarining tushib qolishi, qisqarib ketishi, o‘rin almashishi, aksincha, keraksiz unsurlarning, takrorlarning bo‘lishi va b.). 4. Og‘zaki nutqda talaffuz, ohang, imo-ishora vosirtalari muhim rol o‘ynaudi. 5. Og‘zaki nutqning yuzaga chiqishi so‘zlovchining kayfiyatiga, nutq so‘zlanayotgan vaziyatga, so‘zlovchi nutqiy a’zolarining normal va sog‘lomligiga bog‘liq. 6. Og‘zaki nutq normalarining barcha xususiyatlarini payqash, yozib olish, o‘rgatish va o‘rganish ancha qiyinchilik bilan kechadi. 7. Og‘zaki nutq bir butun hodisa(matn) sifatida cheksiz va son-sanoqsiz shaxsiy(individual) faoliyatdir. 8. Og‘zaki nutqning lisoniy xususiyatlari yozma nutqqa nisbatan kam o‘rganilgan. 9. Og‘zaki nutqni normalash ishlariga shu kunga qadar fanda nihoyatda kam e’tibor berildi. 10. Kishi so‘zlayotganda o‘z nutqiga xuddi yozayotgandagi kabi yetarki e’tibor beravermaydi va b.

Og‘zaki nutqning quyidagi vazifaviy (funksional) ko‘rinishlari mavjud:

1. Kundalik adabiy so‘zlashuv nutqi ko‘rinishlari. Bunga adabiy tilda gapiruvchi barcha shaxslarning kundalik so‘zlashuv nutqini kiritish mumkin.
2. Lektorlar nutqi. Bu ko‘rinishga o‘rta va oliy mакtab o‘qituvchilarining ma’ruzalarini, chiqishlarini kiritish mumkin. Og‘zaki nutqning bu xili, asosan, monologik nutq xarakterida bo‘ladi.

1. Radio va televiedeniye nutqi. Bu ko‘rinishga radio va televiedeniye orqali adabiy tilda so‘zlangan nutqlar kiradi. Radio va televiedeniye nutqi asosini diktorlar, radio va televiedeniye sharlovchilari nutqi tashkil qiladi.

2. Sahna nutqi. Og‘zaki nutqning alohida turi sahna nutqidir. Sahna nutqida ijro etilayotgan asarning til xususiyatlarini saqlagan holda, tomoshbinlar uchun umumtushunarli bo‘lgan tilda so‘zlashga intilish mavjud. Sahna nutqining umumtushunarli bo‘lishini ta’minlaydigan asosiy omil adabiy tilda so‘zlashdir.

Nutq turlarini ba’zan ijtimoiy tabaqalar va guruhlar tili nuqtayi nazaridan nomlash ham uchraydi. Chunonchi: o‘qituvchilar nutqi, o‘quvchilar nutqi, yosh-talabalar nutqi, bog‘cha bolalari nutqi kabi.

Nutqning yuqorida keltirilgan barcha xillari ham nutq madaniyatining asosiy talablariga bo‘ysynadi. Chunki ularning til asoslari ham adabiy til normalaridir. Shu tufayli ham bu nutqiy ko‘rnishlardan talab qilinuvchi nutq madaniyati haqida ham gapishtirish mumkin. Shu asosga ko‘ra o‘quvchilarning nutq

madaniyati, o‘qituvchilarning nutq madaniyati, sahna nutqi madaniyati, lektor nutqi madaniyati, radio nutqi madaniyati, televideniye nutqi madaniyati, umuman keng ma’noda og‘zaki nutq madaniyati talablari haqida gap yuritish mumkin.(7.30-35-betler)

Og‘zaki nutqda fonetik, leksik, grammatic normalar. O‘zbek adabiy tili normalari imiy asarlarda quydagicha tasnif qilinadi: 1. Leksik-semantik normalar – so‘z qo‘llash normalari. 2. Tlaffuz normalari. 3. Aksentologik (urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash) normalari. 4. Fonetik normalar. 5. Grammatik (morfologik va sintatktik) normalar. 6. So‘z yasalish normalari. 7. Imloviy normalar. 8. Yozuv(grafika) normalari. 9. Punktuatsio normalar. 10. Uslubiy normalar.

Bu normalarning barchasi ham muhim. Ammo nutq jarayonida fonetik, leksik, morfologik, sintaktik normalarga riora qilmaslik oqibatida nutqiy g‘alizliklar kelib chiqishi mumkin. Shunga ko‘ra yuksak nutqiy madaniyatga erishaman degan har bir ziyoli bu normalarni chuqur o‘zlashtirishi, ularga o‘z nutqida qati’y rioxaya etmog‘I lozim bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Абдураҳмонов F., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: Ўзбекистон, 2002, 3-46-б.
1. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Т.: Фан, 1985.
2. Mahmudov N. O‘qituvchining nutq madaniyati. –Т.: Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona nashriyoti, 2007.
3. Муҳаммаджонова Г. Ўзбек тили лексикаси тараккиётининг баъзи масалалари. –Т.: Фан, 1982.
4. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёрор X. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. –Т.: Ўқитувчи, 1980, 5-24-б.
5. Элмуродов Н. Ўқитувчининг нутқ маданияти. – Самарқанд: 2003.
6. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. –Т.: Фан, 1992.
7. Қудратов Т. Нутқ маданияти асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1993.
8. Ҳожиев А. Ўзбек тилининг лингвистик луғати. –Т.: ЎзРМЭ, 2002.

4-mashg‘ulot.

Mavzu: Nutq madaniyati va adabiy me’yor, nutq madaniyatining asosiy tamoyillari. 2 soat.

Reja:

1. Mavzuga doir asosiy tayanch so‘zlar, terminlar va iboralar.
2. Nutq madaniyatining asosiy me’yorlari:
 - 2.1. Fonetik me’yorlar.
 - 2.2. Lug‘aviy me’yorlar.
 - 2.3. Morfologik me’yorlar.
 - 2.4. Sintaktik me’yorlar.
 - 2.5. Imloviy me’yorlar.
 - 2.6. Uslibiy me’yorlar.
3. Nutq madaniyati va me’yorlararo aloqa.
4. Nutq madaniyatini egallashning usul va yo‘llari.
5. Adabiyotlar.

Mavzuga doir asosiy tayanch so‘zlar, termin va iboralar:

Me’yor, fonetik me’yor, lug‘aviy me’yor, morfologik me’yor, sintaktik me’yor, imloviy me’yor, uslibiy me’yor, talaffuz me’yori.

Til normasi – me’yorini ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganish o‘zbek tili nutq madaniyati muammolarininazariy jihatdan asoslashning muhim shartlaridan biridir. Chunki “til normasi – nutq madaniyati nazariyasining markaziy tushunchasidir”. “Adabiy tilning rivojlamish qonuniyatlarini, adabiy til normalarining umumiyl holatini, undagi turg‘un va noturg‘un hodisaalarni chuqurroq tekshirmay turib adabiy tilning nutq madaniyati haqida gapirish, adabiy-normativ tavsiyalar berish aslo mumkin emas”.

O‘zbek tilining nutq madaniyatiga bag‘ishlangan ishlarda gapko‘pincha nutqimizda uchraydigan kamchiliklar haqida boradi. Lisoniy birliklarni xuddi shu shaklda qo‘llash kamchilik ekanligini nimaga asoslanib aytamiz? Tilshunoslikda mana shunday qo‘llanishning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatuvchi ma’lum o‘lchov bo‘lishi kerak. Bu o‘lchov **adabiy til normasidir**. Qo‘llangan til birligini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deyilganda ana shu norma nuqtayi nazaridan ish tutiladi.

Xo‘s, norma nima. Bunga tilshunoslar turlicha ta’rif beradi. **Norma – til unsurlarining xalq o‘rtasida ko‘pchilikka ma’qul bo‘lgan variantini qo‘llash.** Shuning uchun ham norma tushunchasi til qurilishi, umuman til taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lib, tilda turg‘unlik kasb etadi va uzoq muddat yashaydi. Ammo bu norma o‘zgarmas hodisadir degan gap emas. Davr o‘zgarishi bilan odamlarning bilimi, dunyoqarashi, hayotga bo‘lgan talabi o‘zgarishi bilan norma ham o‘zgarib borishi mumkin. Masalan, o‘tgan asrning boshlarida muxtoriyat, jumhuriyat,

baynalmilal, yo'qsil, firqa, kashshof kabi so'zlarni ishlatalish norma hisoblangan bo'lsa, asr oxirlariga kelib ular iste'moldan chiqib, ular o'rniда avtonomiya, respublika, internatsional, proletar kabi ruscha-baynalmilal so'zlar qo'llanadigan bo'ldi. XXI asrga kelib avvalgi atamalar tilimizga yana qaytib kirmoqda.

Xullas, normativlik adabiy tilning yashash shartlaridan biridir. Adabiy tilda vavjud bo'lgan tovushlar, so'zlar va so'z birikmalari, turli qo'shimchalar, sintaktik qurilma nutq jarayonida ma'lum qonun-qoidalarga, aytaylik, kelishilgan, ko'pchilik tomonidan ma'qullangan, norma deb tan olingan ko'rsatmalarga bo'ysungan holda amal qiladi. Mana shu qonun-qoidalarning buzilishi yoki ulardan chetlashish tilda normaning buzilishi, unga amal qilmaslik deb baholanadi. Demak, "adabiy til muayyan konkret normativ vositalar, imkoniyatlar, ularni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan qonun-qoidalalar, ko'rsatmalar yig'indisidan iboratdir".

Ilmiy asarlarda o'zbek adabiy tili normalari quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Leksik – so'z qo'llash normalari.
2. Orfoepik – talaffuz normalari.
3. Aksentologik – urg'uni to'g'ri qo'llash normalari.
4. Fonetik normalar.
5. Grammatik – morfologik va sintaktik normalar.
6. So'z yaslish normalari.
7. Imloviy normalar.
8. Grafik – yozuv normalari.
9. Punktuatsion – tinish belgilarini qo'llash normalari.
10. Uslubiy normalar.

Quyida ushbu normalar haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

Fonetik norma. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun 6 ta unli va 25 ta undosh tovushning qo'llanishi norma hisoblanadi. Bu tovushlar yig'indisi o'zbek tilida so'zlashuvchilarning talaffuz va yozishdagi ehtiyojlarini qondirib kelayotgan bao'lsa ham, u ayrim kamchiliklarga egadir. O'zbek adabiy tili normasining takomillashuviga to'sqinlik qilib kelgan bu kamchiliklar nutq madaniyatiga bag'ishlab o'tkazilgan respublika konferensiyasida haqli ravishda qayd qilib o'tildi. Konferensiyada o'zbek alifbosini turkiy xalqlar alifbosiga yaqinlashtirish masalasi qo'yildi. Bu muammolarning bir qismi lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosiga o'tilishi bilan hal etila boshladи. Bu jarayon hali davom etadi.

Talaffuz normalari. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakli bo'lgani kabi, nutqda ham imloviy hamda talaffuz normalari mavjuddir.

Talaffuz normalari, ya'ni adabiy talaffuz normasi til birliklarining og'zaki nutq jarayonida adabiy til normasiga muvofiq kelishidir. Yozuv tufayli o'zbek tilining imloviy normasi anchagina durust holga keltirilgan bo'lsa ham, talaffuzda kamchiliklar hali anchagina. Talaffuzda har xilliklar davom etib kelmoqda va bu hol o'zbek tili nutq madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning sabablari nimada? Sabab sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. O'zbek adabiy tilining og'zaki normalarini barcha bir xilda mukammal egallay olmagani sezilib turadi. Og'zaki adabiy tilni egallah yozma adabiy tildan foydalanishga ko'ra sustroqdir.

2. Adabiy tilda so‘zlovchilar nutqida mahalliy shevalar ta’siri kuchli. Bu ayniqsa, lahjaviy talaffuz va lahjaviy aksentlarda sezilib turadi.

3. O‘zbek adabiy talaffuzi doirasidagi ko‘zga tashlanuvchi xususiyatlardan biri keksa va yosh avlod nutqidagi tafovutdir...

4. Adabiy til og‘zaki shakli normalarining qat’iylashuvida yozma nutq, yozilgan matnlar, talaffuz (orfoepik) va imlo lug‘atlari ijobiy rol o‘ynab keldi... Shu bilan birga, yozma nutq ta’siri og‘zaki adabiy nutq doirasida ba’zi bir nuqsonlarni ham yuzaga keltirdi. Og‘zaki nutqda yozma nutq uchungina xos bo‘lgan ibora va uzun jumlalar yuzaga keldi. Bir qator so‘zlar yozilgan shklida, sun’iy talaffuz etiladigan bo‘ldi...

5. Og‘zaki nutq normalari doirasida hali yetarli qat’iylashmagan, talaffuzi ikkilanib turuvchi bir qator hodisalar mavjud. Chunonchi, ruscha-baynalmilal so‘zlar talaffuzida ikkilanishlarni tug‘diruvchi uch xil hodisa, ayniqsa, ravshan sezilib turadi: 1) ruscha-baynalmilal so‘zlarni dialektal shaklida talaffuz qilish; 2) so‘zni yozilgandek, ya’ni yozma shakliga taqlidan aytish; 3) qabul qilingan so‘zni o‘zbekcha aksent bilan aytish yoki aksincha, uni o‘zbekcha aksentda g‘lati tuyuluvchi ruscha aksent bilan aytish va boshqalar.

Bu kamchiliklarning ham obyektiv, ham subyektiv sabablari bor, albatta. Tilimiz juda ko‘p shevalardan tashkil topganligi, so‘zlashuv nutqida ularning ta’siri kuchli ekanliginiva bu holat tilimizda hali davom etishi mumkinligini e’tirof etish lozim bo‘ladi. Tilimizning lug‘at tarkibida forscha-tojikcha, arabcha, ruscha-baynalmilal unsurlarning anchagini ekanligi ham talaffuzda bir qancha chalkashliklarga olib keladi.

Chet tillardan qabul qilingan va qilinayotgan so‘zlar iste’molda o‘zbek tilining ichki rivojlanish, amal qilish qonun-qoidalariga bo‘ysunishi kerak. Yangi alifboga asoslangan imlo qoidalariga rioya qilinishi bilan bu muammo ham vaqt bilan hal etiladi.

Talaffuz normalarining buzilishiga yana quyidagi kabi subyektiv sabablarni ham ko‘rsatish mimkin. Ba’zi kishilar madaniyoq gapiraman deb o‘ylab, **men**, **sen** olmoshlarini **man**, **san** tarzida qo‘llaydilar.

O‘zbek tili talaffuzida uchraydigan bu kabi kamchiliklarga ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Tan olish kerakki, keyingi yillarda adabiy tilning og‘zaki shakli birmuncha normallahib, yozma nutqqa yaqinlashib bormoqda. Bu xalqimiz madaniy saviyasining yanada o‘sganligidan dalolatdir. Bu borada odamlar namuna oladigan o‘shalarday gapirishga harakat qiladigan olimlar, pedagoglar, umuman ziyyolilarning, oliy va o‘rta ta’limning xzmatlari sezilarlidir. Ana shu ta’sir yanada kuchaytirilishi, targ‘ibotning ommaviy vositalari – radio, televideniyedan, teatr, kino san’atidan, matbuotdan, badiiy adabiyotdan unumli foydalanilishi kerak. Bularning hammasi talaffuz normalarini o‘zlashtirishga ko‘maklashadi.

Imloviy norma. Imloviy norma, ya’ni yozuv normasi adabiy tilning madaniylik darajasining belgilovchi asosiy mezondir. Imloviy norma talaffuz normasidan farqli o‘laroqstixiyali ravishda shakllanmasdan til vakillari tomonidan ongli ravishda kelishilgan holda yuzaga keltiriladi va uning amal qilinishi maxsus imlo qoidalari orqali yo‘lga qo‘yiladi. Ma’lum norma sifatida tavsiya etilgan til

unsurlaridan foydalanish millat vakillari uchun majburiy saanaladi. Hozirgacha o‘zbek adabiy tilining yozuv normalari 1956-yil 4-aprelda tasdiqlangan “O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari”ga tayanib kelgan bo‘lsa, yangi alifboga o‘tilishi munosabati bilan yozuv normalari 1995-yil 24-avgustda tasdiqlangan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ga tayanadi. Mazkur imlo qoidalaringin afzallik tomoni shundaki, unda so‘zlarni talaffuzga mos ravishda yozishga ko‘proq ahamiyat berilgan.

Adabiy tildagi normativ holatlarni mustahkamlashda lug‘atlarning, xususan imlo va izohli lug‘atlarning xizmati kattadir. O‘zbek tilinin 5 tomli izohli, bir qator imlo va orfoepik lug‘tlar yartildi. Bu lug‘tlarning ahamiyati shundan iboratki, xalq ularda berilgan til unsurlariga o‘lchov sifatida qaraydi, yozishda va o‘qishda o‘sha formalar tarzida foydalanishga harakat qiladi. Shuning uchun ham lug‘atlar xalq vakillari uchun tildan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos qonunlar majmuasidir.

Grammatik norma. O‘zbek tilining grammatikasi tilshunoslikning nazariy jihatdanbirmuncha mukammal ishlangan, so‘z shakllari, qo‘sishchalar, so‘z birikmalari va gap tuzilishiancha normallashtirilgan bo‘limi sanaladi. O‘zbek tilshunosligida sheva va dialektlar bilan qiyoslangan holda adabiy til uchun turlovchi va tuslovchi hamda so‘z yasovchi qo‘sishchalarining eng ma’qul variantlari tavsiya etilgan va morfologik norma sifatida belgilangan. Ammo nutqda bu normalarga hamma vaqt ham rioya qilinmayapti. Ularning ayrimlarigagina to‘xtalib o‘tamiz.

Nutqda ko‘pincha qaratqich va tushum kelishigi qo‘sishchalar farqlanmasdan, **-ning** o‘rnida **-ni** qo‘llanmoqda. Quyidagi misolni qiyoslash orqali ularning o‘rtasidagi farqni yaqqol sezishimiz mumkin: **Direktorni xonasida ko‘rdim – Direktorning xonasida ko‘rdim.** Birinchi misoldan direktorning o‘zini, ikkinchi misoldan esa boshqa bir kishini ko‘rganlik tushuniladi. Shuning uchun ham bu kelishiklarni farqlamaslik qo‘pol xatodir.

Sifat yasovchi **-li** va ot yasovchi **-lik** qo‘sishchalarini ham ba’zan farqlanmayapti. Qiyoslang: **Xorazmlik paxtakorlar – Xorazmli paxtakorlar, guruchli ovqat – guruchlik ovqat.**

Jarangsiz undosh bilan tugagan fe’llarga qo‘silib, orttirma daraja shaklini hosil qiluvchi **-kaz** va **-qaz** qo‘sishchalarini ham og‘zaki nutqda ba’zan farqlanmayapti: **daraxt o‘tqazmoq, sim otqazmoq, yo‘ldan o‘tqazmoq.**

Adabiy tilning so‘z yasash shakllari ham shevadan farq qiladi: **olaylik – olali, ketaylik – getali, ilgak – ilgay, aldoqchi – aldamchi** kabi. Shevalardagi so‘z yasovchi qo‘sishchalar soni adabiy tildagiga nisbatan ko‘p. Chunki unda har xillik mavjud. Ammo nutqda adabiy tildagi normativ holatdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yaxshi, namunaviy nutqqa qo‘yiladigan birinchi talab uning grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishdir. Bu jihatdan og‘zaki va yozma nutq hamda she’riy nutq o‘ziga xos farqlarga ega. Har qanday holatda ham gap tuzish qoidalarni yaxshi bilish va ulardan to‘g‘ri foydalanish, gapda so‘z va qo‘sishchalar o‘rtasidagi munosabatning to‘g‘ri bo‘lishi, ega-kesim mosligi hamda ikkinchi darajali

bo‘laklarning ularga bog‘lanishiga e’tibor berish, gapda so‘zlar tartibiga – normal holat va inversiya qoidalariga rioya qilish lozim bo‘ladi.

Ammo nutqda har doim ham so‘zlovchi ana shu sintaktik normalarga amal qilmayapti. Gapdagি har qanday o‘rin almashtirishlarni ham inversiya deb bo‘lmaydi. Nutqda grammatik norma talablariga qat‘iy rioya qilish lozim bo‘ladi.

Lug‘aviy norma. Adabiy tilda milliy tilning yashash va amal qilish qonuniyatlaridan kelib chiqib so‘z tanlash imkoniyatlari uning leksik normasini belgilaydi. Umumxalq tilidan o‘sib chiqqan adabiy til unda mavjud bo‘lgan so‘z variantlaridan lug‘aviy norma sifatida eng ma’qulini – hamma uchun tushunarli bo‘lgan ko‘rinishini tanlab oladi, qolgan variantlar esa sheva va lahjalarda, ijtimoiy guruuhlar tilida yashayveradi. Har bir shevada o‘sha sheva uchun so‘z qo‘llashning o‘z lug‘aviy normasi bo‘lgani kabi adabiy til normasida ham shevalarda uchragani kabi o‘ziga xosliklar bor. Masaalan, she’riy asarlar tilida *visol*, *ruxsor*, *siyna*, *falak*, *yanoq*, *qalb*, *hijron* kabi so‘zlar sheva va lahjalar, hatto jonli so‘zlashuv tili uchun xos emas.

Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o‘zgarishlar, yangiliklar, eng avvalo, leksikada o‘ aksini topadi. Shuning uchun ham leksikaning boyib borishi tildagi boshqa unsurlarga qaraganda birmuncha faoldir. Bu hol leksik norma masalasi bilan tilshunoslikda muntazam shug‘ullanish lozimligini taqozo qiladi.

O‘zbek adabiy tilining lug‘aviy normasi birmuncha tartibga keltirilgan bo‘lib, u imlo lug‘atlarida o‘z ifodasini topgan. Shu tufayli yozma nutqda so‘z qo‘llash birmuncha turg‘un holatda bo‘lib, normani buzishlar unchalik sezilmaydi. Ammo og‘zaki nutqda so‘z qo‘llash normasiga hamma vaqt ham yetarli darajada amal qilinyapti deb bo‘lmaydi. Ularning ayrimlarini ko‘rib o‘tamiz.

Garchi adabiy tilda norma sifatida belgilangan so‘z mavjud bo‘lsa ham, ayrim holatlarda bu so‘zlarning sheva variantlari qo‘llanilyapti: *chelak* – *satil* – *paqir*, *norvon* – *shoti* – *zangi* kabi.

Tilda paronimlar degan qatlam mavjud. Ular talaffuzda bir-biriga yaqin so‘zlar bo‘lib, boshqa-boshqa tushunchalarni anglatadi: *archish* – *artish*, *o‘tqazish* – *o‘tkazish*, *asr* – *aisr*, *yoriq* – *yorug‘* kabi. Ularni farqlamasdan qo‘llash nutqda xatolikka olib keladi.

Ba’zi so‘zlar rus tilidan ko‘r-ko‘rona kalka qilingan holda qollanyapti: *bugungu tantananing aybdorlari*, *boshliq o‘zlaridami*, *men o‘zimda bo‘laman* kabi. Bu gaplarni *bugungu tantananing sababchilari*, *boshliq o‘z xonasidami*, *men o‘z xonamda bo‘laman* tarzida qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Narsaning o‘zbekcha nomi bo‘la turib, uni ifodalovchi ruscha so‘zning tarjimasi noo‘rin qo‘llanadi: *Yetti qaroqchi* deyilmasdan *Katta ayiq* deyiladi.

O‘zbek tilida *ideologiya* – *mafkura*, *intellegent* – *ziyoli*, *avtor* – *muallif*, *redaktor* – *muharrir*, *filosofiya* – *falsafa* kabi leksik dubletlar deb ataluvchi so‘zlar ham ishlatilib kelinmoqda. Atamalar sohasida ham ana shu kabi parallellikka ko‘plab duch kelamiz: *poeziya* – *nazm*, *she’riyat*, *proza* – *nasr*, *traditsita* – *an’ana*, *tema* – *mavzu*, *plan* – *reja* kabi. Keyingi paytlarda bu so‘zlarning milliy variantlari ustunlik qilmoqda. Ba’zi o‘zlashgan so‘zlar leksik muqobillikdan chiqib, bir-birlarining sinonimlariga aylanib qolganlar: *temperatura*

– harorat, gradus – daraja, piramida – ehtirom, entsiklopediya – qomus, universitet – dorilfunun, kapitan – darg‘a.

Uslubiy norma. Ma'lumki, so'z bir yoki bir necha ma'noda bo'lishi, o'zining tilda mavjud bo'lishi davomida undagi ma'nolar o'zgarib borishi mumkin. Shu ma'nolarning qaysi biri hozirgi o'zbek adabiy tili uchun norma hisoblanadi? Ana shu savolga javob berish so'zning ma'no normasini belgilash hisoblanadi.

So'zlarning ma'no normasi tilning izohli, ikki tillik va atama lug'tlarida o'z ifodasini topgan bo'ladi.

Adabiy tilning uslubiy normasi til birliklarining nutqda vaziyat, ko'zda tutilgan maqsaddan kelib chiqib eng ma'qulini qo'llash zaruratidan paydo bo'ladi. Shuning uchun ham uslubiyat deganda so'z qo'llash mahorati ham tushuniladi.

Xo'sh, uslubiy normalar nimalarga asoslanishi kerak? Bu savolga shunday javob bersa bo'ladi: U, birinchidan, tavsiya qilinayotgan til vositalari(shakli, so'zi, qurilmasi) umum tomonidan qabul qilinsin, ko'pchilik tilida qo'llansin, uagona va mushtarak hamda tipik bo'lsin; ikkinchidan, ko'p yillar va zamonlardan beri qo'llanib kelgan bo'lsin va umumtil sistemasidan joy olib, ona tilining hamma sohalari bilan uzviy bog'langan bo'lsin.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir birlik faqatgina nutq jarayonida o'zining u yoki bu stilistik imkoniyatini namoyish qilishi mumkin. Tilda esa bunday imkoniyatlar cheksizdir. Masalan, sinonimlarning imkoniyatini olaylik. Atoqli shoirimiz Maqsud Shayxzodaning ushbu so'zlarini keltiramiz: "Ma'nodosh so'zlarni o'z o'rnida ishlatish so'z san'atkorি uchun farz. Masalan, lug'atlarda "odam", "kishi", "inson" sinonim so'zlardek talqin qilinadi. Ammo jonli tilda shinday emas. "Besh inson keldi" emas, balki "besh kishi keldi" deyiladi; "Kishichilik shunday bo'ladi" emas, "Odamgarchilik shunday bo'ladi" deyiladi. Tilimizning shu tovlanib turishida ne-ne bitmas-tuganmas xazinalar bor". Demak, sinonim so'zlarni qo'llashdan oldin qaysi ma'no nazarda tutilayotgani e'tiborga olinishi kerak. So'zlovchi o'z obyektiga salbiy munosabat bildiryaptimi yoki ijobiy munosabat bildiryaptimi? Sinonim qatordagi so'z o'z ottenkasiga qarab ana shu ma'noni berishga xizmat qiladi. Demak, yuqorida aytib o'tilganidek, so'zning, umuman, til unsurlarining uslubiy normasini uni ishlatishdan ko'zda tutilgan maqsad va nutq amalga oshirilgan vaziyat belgilaydi.

Bu masalaning bir tomoni bo'lsa, so'zlarni noo'rin takror qo'llash, ba'zan noaniq ishlatish uslubiy jihatdan noto'g'rilik, binobarin, uslubiy normaning buzilishi sanaladi: *turgan joyida uzoq turib qoldi; Men ham sizni yaxshi ko'raman...Nimaga shekilli? Otni jadallatdi – Otning jilovini siltab, tezlashni qistadi* kabi.

Uslubiyat vazifaviy uslublar normasini belgilashda ham muhim o'rinn tutadi. Darhaqiqat, vazifaviy uslublar doirasidagi har bir uslabning oddiy so'zlashuv, rasmiy, ilmiy, publisistik va badiiy uslablarning o'ziga xosligini belgilovchi mezon ham ularning har birining til birliklarini qo'llashdagi o'ziga xos normaga ega bo'lishidadir.

Xullas, norma tilning ijtimoiy vazifa bajarishining asosiy sharti bo'lib, unga amal qilish shu tilda so'zlashuvchi va yozuvchilar uchun majburiydir. O'zbek tilining qanchalik normaga keltirilganligi va unga qanchalik amal qilinishi

umummilliy o‘zbek madaniyatining taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan biridir.(2. 35-48-betlar)

Odamlarning yoshlikdan ma’lum bir tilda so‘zlay olishi tabiiy-shaxsiy va obyektiv qobiliyatidir. Shu tufayli ham nutq madaniyati sohasi kishilarni umuman so‘zlashga, ma’lum til vositasida fikr almashishga orgatish vazifsini ko‘zda tutmaydi. Chunki insonning o‘z ona tilida so‘zlay olish qobiliyati avvaldan bor bo‘lgan tabiiy instinktdir. Xo‘sish, shunday ekan, nutq madaniyati sohasining maqsadi nima? Nutq madaniyati sohasi umuman ona tilida emas, balki jamiyat a’zolarini ***ona tilining maxsus shaklida – madaniy shaklida*** gapira olishga o‘rgatishni ko‘zda tutadi. Tilning bunday shakli ma’lum bir milliy tilda gaplashuvchi ijtimoiy guruhlarning batchasi uchun mushtarak bo‘lgan til – ***adabiy tildir***. Shu tufayli nutq madaniyati uchun kurash – bu kishilarning o‘zaro har qanday fikr almashishini madaniylashtirish (masalan, sheva yoki lahjalarda gaplashish) uchun kurash emas, balki butun millat a’zolari uchun yagona bo‘lgan adabiy tilda to‘g‘ri fikr almashish uchun kurashdan iborat. Shunga ko‘ra:

1. Nutq madaniyati sohasi butun millatni ko‘zda tutib ish olib boradi.
2. Nutq madaniyati faqat ziyorilar nutqini yaxshilashni ko‘zda tutadi.
3. Nutq madaniyati sohasi, birinchi navbatda, yosh avlod nutqini to‘g‘rilashni ko‘zda tutib ish ko‘radi.

Nutq madaniyati sohasining to‘liq, pirovard maqsadi batcha xalq ommasining nutqini adabiy tarbiyaga olishdek maqsadni ko‘zda tutmog‘i lozim. Bu maqsad nutq madaniyati sohasining buyuk orzusidir. Bunday orzu haqida hozirgi kunda gapirish mumkin, ammo uning amalga oshishi, ya’ni jamiyatning barcha a’zolarining adabiy tilni mukammal egallashi va bu tilda to‘g‘ri, ravon, madaniy va ko‘rkam gapira olishi kelajakda amalga oshishi mumkin bo‘lgan hodisadir.

Har qanday holda ham nutq madaniyati – ba avvalo, nutqiy ko‘nikma, nutqiy aloqa hosil qilishdir. Bu ko‘nikma nutqiy – amaliy jarayon bo‘lib, maxsus mehnat va mashq evaziga, o‘qish va uqish orqali erishiladigan qibiliyat, mahoratdir.

Insonning adabiy tilni o‘rganishi va egallashi quyidagicha amalga oshadi:

1. Tilni tabiiy holda egallahash. Bunga bolaning o‘ona tilini oila muhitida, shuningdek atrof-muhit ta’sirida o‘rganishi va bilib olishi kiradi.

2. Tilni o‘qitish, o‘rgatish orqali egallahash. Bunga asosan o‘rtta va oliv maktab ta’limi kiradi. Shuningdek, qisman bolalar bog‘chasidagi ta’limni ham mana shu omilga qo‘sish mumkin. Til va uning qonuniyatlari, nutq qoidalari o‘rtta maktabda ona tili va adabiyot darslarida o‘qitiladi. Bolaning til egallahida boshqa fan darslarining ham roli katta.

3. Til va nutq madaniyatini mustaqil o‘qish, shug‘ullanish orqali o‘rganish. Tilni, pirovard natijada nutq madaniyatini egallahsha mustaqil o‘qish, til va nutq ustida mustaqil ishlash muhimdir. Bu ish ikki xil xarakterlidir. Birinchisi, kishi tilga oid maxsus adabiyotlar, darslik va qo‘llanmalar, lug‘atlarni o‘rganadi. Undagi til vanutqqa oid qonuniyatlarni egallaydi. Ikkinchisi, nolingistik adabiyotlarni mustaqil o‘qiydi va bu hol kishi nutqining o‘sishiga, adabiy til normalarini egallahshiga turtki bo‘ladi.

4. Til va nutq madaniyatini egallshning ko‘rinishlaridan biri nutqiy taqliddir. Har bir kishi o‘zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma’noli va o‘tkir gapiradigan kishilar nutqiga havas bilan qarashi va unga taqlid qilishga intilishi mumkin. Bu holda nutqiy taqlid – namunali til, nutq madaniyatini egallahsha intilishning omillaridan biriga aylanadi.

Nutq madaniyatiga erishishning asosiy omili tilni, ayniqsa adabiy til normalarini egallah, ulardan o‘rinli va unumli foydalana olishdir. Ma’lumki, o‘zbek adabiy tili ikki shaklga ega: **yozma nutq va og‘zaki nutq**.

Yozma nutq madaniyati uchun imlo va tinish belgilariga oid qoidalar, yozuv texnikasi, yozishni ko‘p mashq qilish, ko‘p yozish va ko‘p o‘qish, so‘zlarning yozilish shakllarini xotirada saqlay olish, sintaksisga doir normalar va qoidalarni yaxshi o‘zlashtirish muhimdir.

Og‘zaki nutq madaniyatini egallahda adabiy talaffuz, uning qoidalarini, o‘zbek tili fonetikasi xususiyatlarini bilish asosiy o‘rin tutadi.

Olimlarning qayd etishlaricha, nutq madaniyati adabiy tilni egallah va unda shunchaki to‘g‘ri gapirishdan iboratgina bo‘lgan hodisa emas, balki u o‘zining ma’lum sodda va murakkab bosqichlariga ega bo‘lgan jarayondir. Mana shu nuqtayi nazaridan, nutq madaniyati ikki bosqichlidir: **to‘g‘ri nutq** va **nutq madaniyati**. Nutq madaniyatidagi ilk bosqich – **nutqning to‘g‘riliqidir**. Nutqning to‘g‘riliqi adabiy til va uning normalarini egallahdir.

Nutq to‘g‘riliqi mohiyat e’tibori bilan maktab ta’limi predmetidir. O‘rta maktab dasturi, umumiylar tarzda, to‘g‘ri nutq malakasini shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Adabiy tilni egallahning ikkinchi, yuqori bosqichi to‘la ma’noda **nutq madaniyatidir**.

Nutq madaniyati oddiylikdan yuksaklikka rivojlanib, takomillashib boruvchi nutqiy qobiliyatdir.

Shuni ham aytish kerakki, nutq madaniyatining keltirilgan ikki bosqichini til vositalarining o‘zagina ta’minlay olmaydi. Yaxshi, namunali nutq adabiy til nuqtayi nazaridan to‘g‘ri, madaniy bo‘lish bilan bir qatorda u mazmunli, ta’sirchan va o‘tkir, chiroylar va go‘zal, shuningdek axloq va odob qoidalariga amal qilgan holda, nutqiy sharoitga mos ravishda so‘zlangan yoki yozilgan bo‘lishi lozim.

Tilda: sinonimlar, omonimlar, antonimlar, frazeologik birliklar, so‘z variantlari, maqol va matallar, boy uslubiy figuralar, troplar, nutqiy qoliplar, ko‘p ma’noli so‘zlar, neologizmlar, o‘rnida qo‘llangan tarixiy so‘zlar, arxaizmlar va boshqalar nutqni bezaydigan vositalardir. Shu bilan birga, o‘zbek tilida nomadaniy, nutq talabiga javob bera olmaydigan unsurlar ham mavjuddir. Bular: dag‘al so‘zlar, parazit so‘zlar, vulgarizmlar, o‘rinsiz takrorlar, hojatsiz ishlatilgan lug‘aviy o‘zlashmalar, to‘mtoq, g‘aliz jumllalar, sononimlarni, paronimlarni qo‘llash doirasida yuz beradigan nuqsonlar, so‘z ma’nosining nozik tomonlarini, yashirin uslubiy qirralarini yetarli anglamaslik n atijasida yuzaga keladigan semantik-uslubiy xatoliklar, sheva ta’sirida nutqda yo‘l qo‘yiladigan noadabiy talaffuz, so‘zlarni, qo‘sishchalarini ishlatishdagi nuqsonlardir. Nutq madaniyatini egallah uchun tildagi mana shunday xususiyatlarni ham yaxshi bilish lozim bo‘ladi.

Xullas, nutq madaniyatining chinakam sohibi bo‘lish uchun nutq madaniyatining har ikkala bosqichini mukammal egallash lozim. Ushbu darajaga erisha olgan har bir kishi, o‘z navbatida, o‘zbek adabiy tilining sust merosxo‘rigina emas, balki o‘zbek tilining sofligi va yanada rivoji uchun faol kurashuvchi shaxsga, tilparvarga aylanishi shubhasizdir. Chinki inson uchun hayotda lozim bo‘lgan barcha narsa va quollar kabi adabiy til ham doimiy g‘amxo‘rlikka, yordamga muhtojdir.(2.115-133-betlar)

Adabiyotlar

1. Мұхаммаджонова Г. Ўзбек тили лексикаси тараққиётининг баъзи масалалари. – Т.: Фан, 1982.
 1. Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1969.
 2. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Т.: Ўқитувчи, 1980.
 3. Элмуродов Н. Ўқитувчининг нутқ маданияти. – Т.: Ўқитувчи, 2004.
 4. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1992.
 5. Ҳожиев А. Ўзбек тилининг лингвистик луғати. – Т.: ЎзМЭ, 2002, 45-бет.

5-mashg‘ulot.

Mavzu: Nutq madaniyati va adabiy-badiiy manbalar. 2 soat.

Reja:

1. Mavzuga doir asosiy tayanch so‘zlar, terminlar va iboralar.
2. Nutq madaniyati va ilmiy, badiiy asarlar.
 - 2.1. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sinoning nutq madaniyatiga munosabati.
 - 2.2. Yusuf Xos Hojibning “Quradg‘u bilig” dostoni.
 - 2.3. Ahmad Yugnakiyning “Hibatui haqoyiq” dostoni.
 - 2.4. Kaykovusning “Qobusnama” asari.
 - 2.5. Alisher Navoiy, Bobur asarlari.
 - 2.6. Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari.
3. Adabiyotlar.

Mavzuga doir asosiy tayanch so‘zlar, termin va iboralar.

So‘zga chechanlik, badiiy did, va’z, voiz, voizlik, dabirlik, xatiblik, muzakkirlik,

Xalqimizda so‘zga chechan, badiiy didi yuksak kishilar azal-azaldan qadr-qimmatini topib kelgan. Ular o‘z san’ati bilan el og‘ziga tushgan. Shu bois san’at turlaridan biri notiqlikka tamal toshi qo‘yila boshlagan. Sharqda bu san’at - voizlik; notiq - voiz; nutq esa va’z kabi terminlar bilan mashhur bo‘lgan. Sharqda voizlik san’ati jamoaning hissiyoti, tuyg‘ulari va qalbiga ta’sir etish usuli degan tushunchalarni anglatgan va ilmiy-siyosiy ma’ruza, bahs-munozara, targ‘ib va tashviq vositasi sifatidagi keng ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan san’at hisoblangan. Voizlik san’ati hozirgi davrdagi notiqlik san’ati, ritorika tushunchalari o‘rnida qo‘llan-gan. Qadimda podshohlar, hukmdorlar, xonlar, beklar o‘z xalqi oldida ijtimoiy hayot, xalqaro ahvol, davlat siyosati to‘g‘isida shaxsan o‘zlari nutq

so‘zlaganlar. Bunday ma’ruzalar, asosan, juma namozi, hayit bayramlari, navro‘z kunlari va boshqa tadbirdarda an’anaga aylangan.

IX asrga kelib, bu muhim va mas’uliyatli ish maxsus so‘z ustalari, ta’sirchan gapiradigan, voqyeiylikni dalillar bilan isbotlab xalqni ishontira oladigan maxsus kishilarga topshirilgan. Bunday kishilar voizlar deb atalgan. Hukmdorlarning farmoyishlari, turli yorliqlari ana shu maxsus voizlar tomonidan o‘qilgan va sharhlangan.

Voizlik san’ati rivoji jarayonida bu san’atning dabirlik, xatiblik, muzakkirlik kabi tarmoqlari yuzaga kelgan. Dabirlik – davlat ahamiyatidagi yozishmalarini insho etish va o‘qib berish notiqligi; xatiblik – diniy, ijtimoiy-siyosiy notiqlik; muzakkirlik – diniy-axloqiy masalalarni izohlab, sharhlab berish bilan bog‘liq notiqlikdir.

Muzakkirlar keng bilimga ega bo‘lgan shaxslar hisoblanib, ular saroy ayonlari, xonlar, beklar, xalifalar oldida ham nutq so‘zlab, tarixiy voqyealar, sarguzashtlar, jangnomalar va qissalarni hikoya qilib bergenlar. Voizlik san’ati nutq matnlari, tinglovchilarning bilim saviyasi, ijtimoiy mavqyei va boshqa xususiyatlariga ko‘ra turli tarmoqlarga bo‘lingan: sultoniyot – yuqori tabaqa uchun, xutubi jihodiya – jangovar nutqlar, g‘aribona maqom – oddiy xalq uchun va h.k. Voizlik san’ati ijtimoiy va badiiy jihatdan ahamiyatli bo‘lganligi uchun asrlar davomida taraqqiy qildi va qadrlandi.

Voizlar aytilayotgan har bir hodisa va voqeiylikning mohiyatini ochib berish, fikr mazmuni ta’sirchanligini ta’minalash, mulohazalarni tinglovchiga aniq va mufassal yetkazish tamoyillari to‘g‘isida jiddiy shug‘ullanganlar. Va’zlar o‘tkir til, ta’sirchan ifodalar bilan sug‘orilgan hamda badiiy yuksak saviyada tayyorlangan va nihoyatda ravon talaffuz bilan O‘qilgan. Voizlik san’ati o‘tmishda qanday ijtimoiy ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, hozirda undan-da, dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ma’lumki, IX-XV asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari jahon madaniyati taraqqiyotining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarildi. Bu davrda Movarounnahr zaminidan jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobi, Mahmud Zamashshariy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Husayn Voiz Koshifiy singari buyuk siymolar yetishib chiqdi. Ular dunyo tamaddunida o‘z ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy merosi bilan alohida o‘rin egallaydilar. Shu bois bu davr Sharqda Uyg‘onish davri hisoblanadi. Bu yillarda madaniyat, san’at, ilm-fan rivojlanishi barobarida, madaniyat targ‘ibotchi-lari, ulkan so‘z san’atkori - voizlar ham yetishib chiqdi. Notiqlik san’ati ham ravnaq topdi.

Abu Nasr Forobi

Abu Nasr Forobi 873-yilda hozirgi Chimkent viloyatining Forob qishlog‘ida tug‘ilib, 950-yilda Damashqda vafot etgan. Uning to‘liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad o‘zlug‘ Tarxon al-Forobiydir.

Sharq Uyg‘onish davrining buyuk vakili Abu Nasr Forobi ijtimoiy va tabiiy fanlar sohasida qomusiy bilim sohibi bo‘lib, 160 dan ortiq asar yaratgan. U poliglot

sifatida 70 dan ortiq tilni mukammal egallagan. Jumladan, yunon tilida yunon falsafasiga oid sharhlar yozganligi uchun dunyo miqyosida nomi keng tarqalgan. Shu bois Sharqda «*Al-Muallim as-Soniy*» (Arestoteldan keyingi, ikkinchi muallim) ya’ni, «*Sharq Arastusi*» nomi bilan ulug‘langan.

Qomusiy alloma tilshunoslik, she’riyat, musiqa, falsafa, poetika, xattotlik hamda notiqliq san’atiga doir mukammal asarlar yozgan. «*Xattotlik haqida kitob*» (“*Kitob fissan’at al-kitobat*”), «*Lug’atlar haqidagi kitob*» (“*Kitob fil-lug’at*”), «*Ritorika haqida kitob*” (“*Kitob fil-xitoba*”) kabi asarlar shular jumlasidandir.

Aql masalasi chuqur talqin qilingan Forobiyning “*Aql ma’nolari haqida*” risolasida aql, bir tomondan, ruhiy jarayon; ikkinchi tomondan, tashqi ta’sir, ta’lim-tarbiya natijasi ekanligi ta’riflanadi. Insonga xos bo’lgan tug‘ma xususiyat va ruhiy kuch bilan bog‘liq narsa, alloma fikricha, aqldir. Insonga xos tug‘ma instinkt tushunish, fahmlash, muhokama qilish va fikrlash quvvati bolada kamolot sari rivojlanib, takomillashib boradi.

Forobiyning mantiqqa doir asarlarida aql masalasi muhim rol o‘ynaydi. U aqlga ta’rif berish bilan birga inson faoliyatida aqlning roli xususida keng to‘xtaladi. Forobiyning yozishicha, mantiq san’ati kishiga shunday qonunlar haqida ma’lumot beradiki, bu qonunlar vositasida aql chiniqadi, inson sog‘lom fikrlashga o‘rganadi – haq va to‘g‘ilik qaysi tomonda ekanini anglaydi, turli xatolarga yo‘l qo‘yishdan saqlanadi . Forobiy fanlar mazmunini mantiq tashkil etishini alohida ta’kidlaydi. Jumladan, mantiq ilmi va grammatika o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida: “Mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo‘ldan olib borish uchun aqlni to‘g‘ilab turadi”, -deb yozadi.

Forobiy mashhur asarlaridan biri “*Fozil odamlar shahri*”da mashhur shaxslarning o‘n ikki muhim sifatini sanab o‘tadi. Shular-dan beshinchi sifati notiqlik mahorati bo‘lib, bu haqda “Notiqning so‘zлари aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin”, -deb alohida to‘xtaladi.

Forobiy asarlarida so‘z san’ati, notiqlik mahorati haqida ahamiyatli qaydlar ko‘plab uchraydi. Chunki Forobiyning o‘zi mashhur notiq bo‘lgan. Bu kasbni benihoya qadrlagan. Manbalarda Forobiy shirinso‘z , hozirjavob, mushkul masalalarni ham bir zumda hal qila oladigan donishmand notiq bo‘lganligi qayd etilgan.

Forobiyning ko‘p tillarni biluvchi poliglot olimligi haqida qayd qilingan edi. Bu haqda aniq dalillar bilan bir qatorda rivoyatlar ham mavjud... Kunlarning birida Forobiy Damashq hokimi huzuridagi olimlar majlisiga tashrif buyuradi. Hokim Sayfud-davla Forobiyni o‘tirishga taklif qiladi. Shunda hozirjavob alloma:” O‘zimning martabamga qarab o‘tiraymi yoki Sizning martabangizga qarab o‘tiraymi”, - deya savol bilan murojaat qiladi. “O‘zingning martabangga qarab o‘tir”, -javob qaytaradi hokim. So‘ngra Forobiy hokim taxi yoniga borib o‘tiradi. Bu hol hokimga ma’qul kelmay, “Bu turk odobsizlik qildi, axloqsizligi uchun ketayotganida uni jazolanglar”, - degan mazmunda soqchisiga shipshitadi. Ko‘pchilikka noma’lum bo‘lgan bu sirli qarashni sezgan Forobiy: ”Men hech bir

gunoh ish qilganim yo‘q-ku, nima uchun meni jazolaysiz?-deb so‘raydi. Olimning zukkoligidan hayratlangan hokim, bu tilni hech kim bilmas edi, sen qayerdan o‘rgangansan?- degan murojaatiga Forobiy: “Men ko‘p tillarni o‘rganganman”,- deb javob qaytaradi. Yoniga o‘tirgan shaxs buyuk alloma, “*Ikkinchı muallim*” nomi bilan dong taratgan Forobiyligini sezib qolgan hokim undan uzr so‘raydi va hurmatini joyiga qo‘yadi.

Abu Ali Ibn Sino

Buyuk tabib, faylasuf, shoir Abu Ali ibn Sino Sharq uyg‘onish davrida muhim o‘rin egallaydi.

Dunyo ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shtigan Abu Ali ibn Sino qomusiy bilim sohibi. Ilm-fan, madaniyat tarixida nomi zarrin harflar bilan bitilgan. Sharqda tabiblik sohasida dong taratgan Ibn Sino g‘arbda “*Avisenna*” nomi bilan mashhur bo‘ladi.

Abu Ali ibn Sino buyuk tabib, matematik, faylasuf va shoir sifatida 280 dan ortiq qimmatbaho asarlar yozib qoldirgan. Tilshunoslik, poeziya nazariyasi, musiqashunoslik ba boshqa sohalar bilan ham mashg‘ul bo‘lgan. “*Arab tili grammatikasi*”, “*She‘r to‘g‘isidagi kitob*”, “*Musiqa haqida risola*” kabi asarlar shular jumlasidandir. Ibn Sinoning ta’lim-tarbiya, axloq va nutq mada-niyati haqidagi qarashlari notiqlik san’ati tarixi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu borada Ibn Sino nutq jarayonida quyidagilarga qat’iy amal qilishni uqtiradi:

- nutqda ohang muhim rol o‘ynaydi. Shu bois ohangga e’tibor berish lozim;
- notiq birinchi navbatda tinglovchilar saviyasini, dunyoqarashini e’tiborga olishi kerak;
- ortiq nasihatgo‘ylik nutqqa putur yetkazadi, o‘rtoqlik tarzida olib borilgan suhbat kuchli taassurot qoldiradi;
- barchaga yoqimli, muloyim, ohangdor nutq maqsadga muvofiqdir;
- o‘rinli dashnom hayotiy misollar bilan qiyoslab berilsa, ijobjiy samara berishi tabiiydir;
- nutq jarayonida e’tiqod masalasida bir necha dalillarga tayanilsa, nafaqat tinglovchiga ta’sir qilishi mumkin, balki o‘zi haqida o‘ylashga, haqiqatni izlashga harakat qiladi;
- tinglovchi nutqni e’tibor bilan eshitayotganda, nutq oxirigacha mantiqan izchil davom ettirilishi maqsadga muvofiqdir, aks holda mavzuni almashtirishga to‘g‘i keladi.

Ibn Sino fikricha, notiq o‘z nutqiga nihoyatda e’tibor berishi lozim. Kamchilik, nuqsonlarni ko‘ra bilishi kerak. «Agar biror kamchilik e’tibordan chetda qolsa, butun mehnat zoye ketadi va istalgan natijaga olib kelmaydi»¹.

Nutqda notiq tomonidan chetlab o‘tilgan nuqsonlar, salbiy natijalarga olib kelishi ham mumkin. Bunday kamchiliklarni Ibn Sino «Sirti tuzalgan, lekin ichidan yiringlab ketgan yara»ga qiyoslaydi. Bu nuqsonlar «vaqt bilan yiringlab, o‘zining yaramas va be’mani qiyofasini ko‘rsatadi», - deb alohida ta’kidlaydi. Bunday kamchiliklar ko‘proq hukmron doira vakillarida uchrashi tabiiy edi. Shu bois Ibn Sino bu boradagi fikrlarni ko‘proq o‘shalar nutqiga tegishlilagini ta’kidlaydi.

¹ Ибн Сино фикрлари қуйидаги манбадан олинди: Баротов М. Ибн Сино этикаси. Т., 1969, 20-21-бетлар.

«Odamlar hukmdorlardan qo‘rqishlari tufayli ba’zan ularning kamchiliklarini bilsalar ham yuziga haqiqatni ayta olmaydilar. Amaldorlar o‘z nutqlaridagi kamchiliklarni har doim ham sezalma olmaydilar, ba’zan esa sezsalar ham lavozim, mansabdan foydalangan holda o‘zlarini boshqalardan ustun qo‘yadilar. Buning natijasida ularning xulqlari buzila boshlaydi, bu hol davlat ishiga ham salbiy ta’sir etadi», - deb yozadi.

Bundan tashqari, Abu Ali ibn Sino o‘zining nazmiy asalarida ham notiqlik, nafosat, so‘zga chechanlikning; kishi tafakkuri, aql-idrokining oynasi til tufayli ekanligini ta’kidlaydi:

Inson notiqligi, saodat tildan,
Nazokat tildandir, nafosat tildan.
Hayot saboqlari ko‘rsatur shuni,
Do‘zax tildan erur va jannat tildan. (Ibn Sino. Farosat ilmi haqida).

Ibn Sino davlat boshqaruvi tizimida demokratik tamoyillarga amal qilish tarafdori edi. Shu bois u amaldorlar faoliyatidagi, xususan, nutqidagi xato-kamchiliklar vaqtida tuzatilsa, mamlakat poydevori mustahkam bo‘lishini uqtirgan edi.

Butun kuch-g‘ayratini ilmga bag‘ishlagan, xalq sog‘ligi va mamlakat xizmati yo‘lida faoliyat ko‘rsatgan buyuk mutafakkir olim 1037 yili olamdan o‘tdi. Uning muborak nomi jahonning barcha mamlakatlarida hurmat va ehtirom bilan tilga olinadi.

Kaykovus

Unsurulmaoliy Kaykovus Kaspiy dengizi janubiy qirg‘oqlari-da yashagan Gilon qabilasiga mansubdir. U XI asrda yashab ijod etdi. O‘z zamonasining ziyoli kishilaridan bo‘lib yetishdi. Musiqa va tibbiyot ilmida muvaffaqiyat qozondi. Biroq Kaykovus nomini «Qobusnama» asari mashhur siymolar qatorida mangulikka muhr-ladi. XI asr Sharq ma’naviyati tarixida qimmatli asarlardan biri hisoblangan «Qobusnama»da ham notiqlik san’ati, mahoratiga doir alohida boblar berilgan. Kaykovus notiqlikka alohida e’tibor qaratadi. U so‘z san’atida shaxsning mukammal bilimga ega bo‘lishi tarafdori edi. «Bilgilkim, hamma hunardin so‘z hunari yaxshi», deb uqtiradi u.

Agar hunarmand mashaqqatli mehnati tufayli moddiy ne’matlar bunyodkori bo‘lgani bilan, mehnat mahsulida inson ma’naviy qiyofasi to‘laqonli namoyon bo‘lmaydi. Shu bois hunarmand ham mehnat jarayonida ma’naviy qiyofasini shakllantirishi lozim. Bu nutq orqali namoyon bo‘ladi. «So‘z hunari» ni egallagan hunarmandning ishi boshqalardan ko‘ra yaxshiroq yurishadi deydi u. Kaykovus fikricha, so‘z amol, so‘zga chechan notiq kishi hamma joyda muvaffaqiyatga erishadi. Xushmuomalalik bilan ishni bitirib ketaveradi.

Kaykovus mashhur “Qobusnama” asarida notiq muvaffaqiyat qo-zonishi uchun quyidagilarga alohida e’tibor berishini ta’kidlaydi:

- tinimsiz mehnat, o‘z ustida ishslash va o‘rganish;
- nutq yoqimlilagini ta’minlash. Bu haqda u: “Nutqing go‘zal bo‘lsinki, xalq uni mamnunlik bilan qabul qilsin”, deb uqtiradi.
- nutqda ifodalangan fikr tinglovchi qalbiga yetib bora olsin;

-so‘z yoki mulohaza to‘g‘i, jonli shakllanishi va asosli bo‘lmog‘iga erishish;

- ilmiy asos va dalillarga boy nutq ta’sirchanlikni orttiradi;

-nutq matni jiddiy tayyorgarliksiz havola qilinar ekan, birinchidan, saviyasi, ikkinchidan ta’sir doirasi past bo‘ladi;

- “Har qancha dono bo‘lsang ham o‘zingni nodon bilgil, toki senga ilm o‘rganish eshigi ochiq bo‘lg‘ay”;

-“Amaldorlar bilan amaldordek, oddiy odamlar bilan oddiy odamlardek so‘zlashgil, donishmandlik chegarasidan chiqma, sening so‘zingni eshitgan kishiga og‘ir tuyulmasin”;

-“Ko‘p bilgil-u, oz so‘zla.., shunday so‘zlagilki, bu so‘z bekor va zoye ketmasin”;

- so‘z eshitishdan qochma, kishi so‘zni eshitish bilan notiq bo‘ladi”.

Unsurulmaoliy Kaykovusning bunday fikr-mulohazalari notiqlik san’ati tarixida hamon o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Yusuf Xos Hojib nutq va so‘z odobi xususida

Sharqda Uyg‘onish davrining turkiy muhittagi dastlabki yirik siymosi Yusuf Xos Hojib Balosog‘un (Qirg‘izistonndagi To‘qmoq shahri) shahrida dunyoga keldi. Yusufning qachon tug‘ilgani, vafot etgan yili ma’lum emas.

XI asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkiston(Koshg‘ar)da va Markaziy Osiyo hududida qoraxoniylar sultanati mustahkamlandi. Bu hokimiyatning markazi Koshg‘ar (O‘rdukent) bo‘lib, uning shimolida Balosog‘un (Kuzo‘rdu), g‘arbda Samarqand kabi yirik siyosiy va madaniy markazlar bor edi. Iste’dodli shoir, davlat arbobi, donishmand adib Yusuf Xos Hojib mana shu davrda yashadi va ijod etdi. Uning qalamiga mansub “Qutadg‘u bilig” (“Baxt-saodatga eltuvchi bilim”) asari 1069 yilda Koshg‘arda yozib tugallangan. Shoir o‘z asarini qoraxoniylar hukmdori Tavg‘och Bug‘roxonga taqdim qiladi. Buning evaziga esa u Xos Hojiblik lavozimi bilan taqdirlanadi.

Bu asar o‘z zamonasining tafakkuri, hikmati va falsafasini aks ettiradigan qomusiy manbadir. Asarda ulug‘ mutafakkirning adolat, insof, ilmu ma’rifat, davlatchilik haqidagi, insoniy siyrat va xilqat haqidagi fikrlari yoritilgan. Bu hikmathlar hozirgi kunda ham dolzarb va ibrat sabog‘i bo‘lib kelmoqda.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida nutq madaniyati, notiqlik san’ati borasida ham qimmatli fikr-mulohazalar bildirilgan. “Bilimni buyuk bil, uquvni ulug‘ bil» tamoyili asarning bosh g‘oyasini tashkil etadi. Yusuf Xos Hojib tushunchasida notiq - zimmasiga mas’uliyatli vazifalar yuklangan shaxs. U mamlakat rivojini, dunyo voqyealarini tahlil qila oladigan, chuqur bilimli, siyosiy yetuk va hushyor bo‘lmog‘i kerak.

Yusuf Xos Hojib nutq madaniyati haqida fikr yuritar ekan, uni qonun ijrosi, qonun ustuvorligi, adolat, odil hukm, poklik kabi tushunchalar bilan mushtarak deb biladi. Mamlakatda adolatli qonun ustuvorligi xalq hayotini ta’minlovchi bosh masala ekan-ligini ta’kidlaydi. Shu bois ma’naviyatimiz gultoji hisoblangan

“Qutadg‘u bilig“ asari ham huquq fani tarixida, ham notiqlik san’ati tarixida qimmatli manbalardan biri hisoblanadi. Asarda bilim hayotdagi barcha ishlarning asosi ekani ta’kidlanadi. Ana shu asos ijtimoiy hayotda ustuvor bo‘lishini ta’minlash lozim. El rahnomalari, boshqaruv tizimi vakillari bo‘lsa, adolat bilan ish yuritadi, mamlakatda farovon turmushni ta’min etadi, shuning uchun mutafakkir bilim borasida:

Yana bir hikmat bor: Hazrati Odam
Bilim, aqlu idrok, sabab muhtaram.
Bilimni buyuk bil, uquvni ulug‘
Shu ikkov ulug‘lar kishini to‘liq²,

deb yozganida mutlaq haq edi.

«Qutadg‘u bilig» asarida muallif ilg‘or ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-ta’limiy, huquqiy qarashlarni ilgari suradi. Bu umuminsoniy qadriyatlar, mamlakatda qonun ustuvorligi va adolat tamoyillari bilan bevosita uyg‘unligini qayd etish joiz.

Yusuf Xos Hojib insonni ulug‘laydi. Inson bilmaydigan narsa bo‘lmaydi. Har bir narsani bilish, uning tub mohiyatiga yetish, insonning qo‘lidan keladi, deb aytadi.

Xalq, millat mavqeい davlat boshqaruv tizimiga qarab belgila-nadi. Chunki davlat boshlig‘i, mamlakat boshqaruv tizimi ijtimoiy hayotga, kishilar ma’naviy, axloqiy turmush tarziga ta’sir ko‘rsa-tishi tabiiy. Farovon, osoyishta turmushning asosini adolatli boshqaruv tizimi tashkil qiladi.

Shunday ekan, yurt tinchligi xalq farovonligi har bir davlat-ning bosh maqsadidir. Farovon turmush tinch hayotga qonun ustuvorligi asosida erishiladi. Qonunga bo‘ysunish, adolatli tuzumni mamlakatda joriy etish qadimdan barcha mamlakatlar uchun bosh muammo hisoblangan. Chunki mamlakat ijtimoiy hayotida fuqaro qonunga birday itoat qilmas ekan, bu shunchaki so‘zlar yig‘indisi bo‘lib qolishi tabiiy. Demak, hamma zamonlarda adolatli qonun ustuvorligiga erishish, qonun himoyachilariga ehtiyoj sezilib turgan.

Bundan salkam ming yil muqaddam yaratilgan «Qutadg‘u bilig» asarida ham adolatli shoh va davlat boshqaruv tizimida birlamchi vosita hisoblangan qonun ustuvorligi bosh masala sifatida yoritilishi bejiz emas. Buning uchun shaxs bilimli bo‘lishi va har doim ilm o‘rganishga intilishi lozim.”Qutadg‘u bilig”da ta’kidlanishicha, el rahnamolari bilimli bo‘lsalargina adolatli ish yuritadilar. Mamlakat tinchligi, xalq farovonligini ta’minlaydi. “Bilik birla baglar budun boshladi». «O‘qush birla el-kun ishin ishladi». Bilim bilan beklar xalqqa boshchilik qiladi, zakovat bilan el-yurt ishlarini yuritadi. Yusuf Hos Hojib shu bois «Hazrati odam - bilim, aqlu idrok sabab muhtaram, bilimni buyuk bil, uquvni ulug‘, shu ikkov ulug‘lar kishini to‘liq»³,-deb yozadi.

«Qutadg‘u bilig» asaridagi ilg‘or ma’rifiy, axloqiy, ta’limiy, siyosiy-huquqiy qarashlar, fikr-mulohazalar hozirgi vaqtida ham o‘z qadr-qiyomatini saqlab, umuminsoniy qadriyatlar qatoridan o‘rin olib kelmoqda. Buning sababini asar mundarijasи – boshqaruv tizimini qat’iy tartib asosida olib borish, adolatli qonun

² Юсуф Хос Жошиб. Кутадгу билиг. Т., “Юлдузча”, 1990, 11-бет.

³ Ўша асар, ўша бет.

ustuvorligini ta'minlash, turli ijtimoiy tabaqalar burch va faoliyatini bilish, ilm-ma'rifat, odob-axloq masalalari talqini tashkil etishidadir.

Yusuf Xos Hojib ilm-ma'rifatni saodat kaliti deb biladi. Shu sabab har bir qadriyatning ildizini ilmdan qidiradi. Va o'quvchini qoniqtira oladigan javoblarni topib, o'rinliqo'llay oladi. Bu - asarda didaktik usulda berilgan. Ayni paytda bu qomusiy manbadagi til va nutq odobi haqidagi fikrlar hamon dolzarbligini saqlab kelmoqda. Asarning yettinchi bobি «Til ardami» («Til odobi») deb nomlanadi. Mazkur bobda tilning ahamiyati, mazmunli nutq va til odobi haqida ibratlι fikr yuritilgan. Muallif:

Uquv-u bilimga tilmochdir bu til⁴,
Kishiga yorug'lik shu tildan-a, bil,
deb g'oyat o'rinlinasihat qiladi.

Yoki

Bu tildan qadr ham topar qut kishi,
Noo'rin esa-chi yorilar boshi,-deb yozadi.

Ya'ni, inson tili tufayli baxt-saodatga erishadi, qadr topadi. Aksincha, tilga e'tiborsizlik, noo'rin so'zlash «boshni yoradi», insonni obro'sizlantiradi.

«Qutadg'u bilig» asarida quyma fikrlar, xalq maqoli, aforizmga yaqin misollar ko'plab uchraydi:

Oshiq so'z da aslo bo'larmi foyda
Ziyondan bo'lak yo'q so'z ortiq joyda.

Oshiq so'zlama hyech, juda so'zla oz,
Tuman so'z tugunin bu bir so'z da yoz.

Kumush qolsa meros agar-chi senga,
Uni tutmagin sen bu so'zga teng-a.

Kumush ishga tushsa olqinar (tugaydi), tugar,
So'zim ishga tushsa, kumushlar tugar.

Mutafakkir adib e'tiroficha, ezgu so'z li kishi mangu yashaydi. Uning nomini ezgu so'zi tarix sahifalarida asrdan asrga olib o'tadi. Shuning uchun tilga, so'zga hushyorlikka chorlaydi u:

Tug'ilgan o'ladi, qolarmi nishon,
So'zing ezgu bo'lsa – mangusan, ishon.

Yusuf Xos Hojib badiiy so'zning salohiyati, ta'sir kuchiga e'tibor bilan qaraydi. Asarda hikmatli so'zlar, turli xalq maqollari, o'tkir iboralar hamda tilning tasviriy ifoda vositalalaridan ustalik bilan unumli foydalangan. Turli badiiy san'atlarda fikr-istiklari, g'oyasini singdirishga harakat qilgan. Hamma zamonlar

⁴ Қолган ўринлардаги мисоллар ҳам юқоридаги манбадан олинди.

uchun dolzARB hisoblangan ijtimoiy-siyosiy muammolar asar boblarida yoritilgan va donishmand adib tomonidan yechilish yo'llari ko'rsatilgan.

„Qutadg'u bilig“ asari, nafaqat, X1 asr turkiy xalqlar madaniy merosining gultoji hisoblanadi, balki Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonda yashagan turkiy xalqlar hamda qabilalar madaniyati, urf-odati va tilining muhim yodgorligi sifatida katta ahamiyatga egadir.

Alisher Navoiy

Ulug' mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy butun umrini, aqliy faoliyatini xalq hamda millat kelajagi, vatan ravnaqiga bag'ishladi. Millat va davlat kelajagi uchun qayg'urdi, bu yo'lda fidokorona xizmat qildi.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro hukmronlik qilgan yillarda bosh vazir lavozimiga ko'tarildi. Donishmand davlat arbobi sifatida mamlakat tinchligi, xalq farovonligi yo'lida xizmat qildi. Navoiy ijodida so'z , nutq va notiqlik masalalariga ham alohida e'tibor berilgan. Turkiy tilning yaratuvchanlik qudrati, ma'no nozikliklarini o'z asarlarida isbotlab bera oldi. Alisher Navoiy ijodida barcha daho so'z san'atkorlarida bo'lgani kabi baynalmilal so'zlar ko'p uchraydi. Xususan, asarlarining aksariyat qismi arabcha nomlangan. Garchand Navoiy yashagan davrda ijodkorlar asarlari arabcha nomlanishi rusum bo'lsa-da, mutafakkir shoir arabcha, fors-tojikcha so'z va iboralarni ezgulik maqsadida qo'lladi. Biroq u ona tili – o'zbek tilini ko'klarga ko'tardi, bu tilning boy imkoniyatlaridan unumli foydalandi. «Ko'p va xo'b» yozdi. Ona tilida ijod qilishni faxr deb bildi. «Farhod va Shirin» dostonidan olingan quyidagi misralar fikrimiz dalilidir:

Olibmen taxti farmonimg'a oson,
Cherik chekmay Xitudin to Xuroson.

Yoki:

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yak qalam. ("Lison ut-tayr").

Alisher Navoiy tilni tafakkur mahsuli vositasi, insomni hayvondan ajratuvchi «guhari sharif» deb biladi. Tilga ijtimoiy hodisa deb baho beradi. Inson fikri daryodir, so'z esa – dur, so'zlovchi g'avvosdir. Yaxshi so'z insonga jon baxsh etsa, yomon so'z insonni halok etadi, - deydi.

So'z din o'lukning tanida ruhi pok,
Ruh dag'i tan aro so'z din halok.

Mutafakkir adib til odobi haqida ham qimmatli nasihatlar beradi:
So'zni ko'ngilda pishirmaguncha tilga keltirma.
Va har nekim, ko'ngilda bor – tilga surma.

Alisher Navoiy notiqlik mahorati borasida betakror fikrlarni bayon qiladi. U notiqlik san'atining ichki mohiyatini tushuntiradi. So'z ko'ngilda pishib yetilmaguncha tilga chiqmasligini, aks holda aytilgan so'z, go'yo nafasdek qaytarilmasligini uqtiradi: «So'zni ko'ngilda pishirib, toblamaguncha tilga keltirma. Dilda bor so'z fikrlarning hammasi aytgulik bo'lavermaydi. Ichda

yotgan so‘zlarining – sening sirlarining. Sir esa nafasga o‘xshashdir. Chiqqan nafasday, uning ham sira qaytarilish imkonini bo‘lmaydi».

Notiqlik san’ati haqidagi fikrlar Alisher Navoiy asarlarida ko‘plab uchraydi. Hatto mutafakkir adib «Mahbub ul-qulub» nomli falsafiy asarining maxsus fasli, ya’ni 24-faslini notiq va notiqlik san’atiga bag‘ishlaydi. «Nasihat ahli va voizlar zikrida» deb nomlangan mazkur faslda notiqlik mahorati va notiqlik san’ati fazilatlari haqida qimmatli fikrlarni bayon qiladi: «Voiz kerakki, “qolaalloh” so‘z aytsa va “qola rasululloh” muxolafatidin qaytsa, xudo va rasul yo‘lig‘a qadam ursa. O‘zi kirgondin so‘ngra nasihat bila elni ham kivursa. Yurumagan yo‘lg‘a elni boshqarmoq – musofirni yo‘ldin chiqormoqdur va biyobong‘a keturmak va bodiyada iturmakdur. Usrukki, elga buyurg‘ay hushyorliq – uyquvchidekdurki, elga buyurg‘ay bedorliq. Uyqusida so‘z degan jevligon bo‘lur va ul degondek qilmoq ne degon bo‘lur»⁵, deb bu san’atga ilohiy tus beradi. Navoiydan keltirilgan mazkur iqtiboslar navoiyshunos Inoyat Maxsumov tomonidan hozirgi o‘zbek adabiy tiliga nihoyatda mohirona tabdil qilingan: “Voiz Haq so‘zni targ‘ib qilishi, Payg‘ambar so‘z idan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uning o‘zi Haq va payg‘ambar yo‘liga kirishi, so‘ngra esa nasihat bilan elni ham shu yo‘lga solishi lozim. O‘zi yurmagan yo‘lga elni boshlamoq – musofirni yo‘ldan adashtirib, biyobonga tashlamoq va sahroda uni yo‘qotmoqdir. O‘zi mastning elni hushyorlikka chaqirishi – uyquchi kishining odamlarni bedorlikka da’vat etganiga o‘xshash bir narsadir”⁶.

Ya’ni, notiq, avvalo, iymon-e’tiqodli, musulmon, shariat arkonlarini biladigan, tariqat yo‘liga kirgan shaxs bo‘lishi lozim. Nutqida Qur’oni karim va hadisi sharif ma’nolarini targ‘ib etishi joiz.

Nutq ijod qilish va notiqlik san’ati fazilatlari haqida Alisher Navoiy qat’iy e’tiqodli bo‘lish, haqiqat vaadolat yo‘lidan bormoqni ta’kidlaydi: «Va’z bir murshid va ogoh ishidur va uning nasihatini qabul etgan maqbul kishidur. Avval bir yo‘lni bormoq kerak, andin so‘ng elni boshqarmoq kerak. Yo‘lni yurmay kirgan itar va g‘ayri maqsud yerga yetar»⁷. Ana shunday fazilatlar nutqqa ko‘rk bag‘ishlaydi. Jonlilik kasb etadi. Ulug‘ mutafakkirning bu fikrlari ham hozirgi o‘zbek adabiy tiliga yuqorida nomi zikr etilgan adabiyotshunos tomonidan quyidagicha nasriy bayon etilgan: “Va’z murshidlar – pirlar, hushyor kishilarining ishidir va ularning nasihatini qabul etgan maqbul kishidir. Avvalo, uning o‘zi bir yo‘lga tushib olgan bo‘lishi, keyin esa boshqa odamlarni o‘scha tomon boshlab borishi kerak. Yo‘lga bilmay kirgan yo‘qoladi va maqsadidan boshqa yerga yetadi”⁸.

⁵ Алишер Навоий. Асарлар, 13-том. Махбуб ул-кулуб. Т., 1966, 25-бет.

⁶ Алишер Навоий. Махбуб ул-кулуб. Иноят Махсумов насрый баёни. Т., Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983, 31-бет.

⁷ Алишер Навоий. Асарлар, 13-том. Махбуб ул-кулуб. Т., 1966, 25-бет.

⁸ Алишер Навоий. Махбуб ул-кулуб. Иноят Махсумов насрый баёни. Т., Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983, 32-бет. ⁸ Алишер Навоий. Асарлар, 13-том. Махбуб ул-кулуб. Т., 1966, 25-бет.

⁸ Алишер Навоий. Махбуб ул-кулуб. Иноят Махсумов насрый баёни. Т., Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983, 31-бет.

⁸ Алишер Навоий. Асарлар, 13-том. Махбуб ул-кулуб. Т., 1966, 25-бет.

⁸ Алишер Навоий. Махбуб ул-кулуб. Иноят Махсумов насрый баёни. Т., Фафур Ғулом номидаги

Alisher Navoiy inson umrini aziz va mukarram deb biladi. Vaqt ni qadrlaydi. Shu bois notiqlik san'ati haqida fikr yurit-ganda nutqning ishonchli bo'lishini, haqiqat ustuvorlik qilishi lozimligini bosh masala deb qaraydi. Aks holda, tinglovchilarda zerikish paydo bo'ladi. Bu notiq obro'siga putur yetkazishi tabiiydir. Alisher Navoiy «Voiz uldurki, majlisig'a xoli kirgan to'lg'ay va to'la kirgan xoli bo'lg'ay. Voizkim, bo'lg'ay olim va mutaqiy - aning nasihatidin chiqqan shaqiy. Ulki, buyurib o'zi qilmag'ay, hyech kimga foyda va asar aning so'zi qilmag'ay. Nazoirxon bila surguvchi maqol - dastyor bila yirlag'uvchi qavvol» deb, yana bir bor notiqlik mahorati fazilatlarini yorqinroq ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy, nafaqat, badiiy ijod bilan mashg'ul bo'ldi. Balki jamoat ishlarida faol qatnashishni, xalqqa xizmat qilishni o'zining insoniylik burchi deb bildi. Shu bois u xoh vazir bo'lsin, xoh oddiy fuqaro bo'lsin, o'z obro'-e'tibori bilan podshohga turli ijtimoiy masalalarda murojaat qilar edi. Yig'inlarda ishtirok etar, xalqqa tushuntirish ishlarini olib borardi. Shu sababdan Alisher Navoiyning notiqlik san'atiga e'ti-bor bilan qarashi tabiiy edi. Asarlarida bu san'at fazilatlarini bayon qildi. Qolaversa, ayni zamonda ham Alisher Navoiyning bu mavzudagi fikrlari o'zining dolzarbli bilan ahamiyatlidir. Notiqlik san'ati rivojida, milliy davlatchiligidan shakllani-shida Navoiyning notiqlik mahoratiga doir fikrlari dasturilamal vazifasini o'tashi tabiiydir.

Husayn Voiz Koshifiy

Husayn Voiz Koshifiy 1442-46 yillarda Sabzavorda tavallud topgan va 1505 yilda vafot etgan. Husayn Voiz uning taxallusi, asl ismi Kamoliddindir. Husayn Voiz Koshifiy – voizlik san'ati namoyandasini va nazariyotchisi, ulug' mutafakkir, qomusiy olim. Arab, fors tillarini yaxshi bilgan. Matematika, kimyo, astronomiya, musiqa, adabiyot va fiqh fanlarining bilimdoni bo'lgan. Yoshligidan notiqlik bilan shug'ullangan. Nishapur va Mashhadda (1455-68), keyinchalik Hirotda (1468 yildan) yashagan. Asarlarini fors tilida yozgan. Navoiy bilan ijodiy hamkorlik qilgan va unga bag'ishlab "Mavohibi oliya" – "Oliy tuhfalar" nomli asarini yozgan.

Husayn Voiz Koshifiy falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyot-shunoslik, siyosat, din tarixi, voizlik, she'r san'ati kabi fanlarga oid 200 dan ortiq asar yozganligi manbalarda qayd etiladi. Uning axloq haqidagi eng mashhur asarlaridan biri "Axloqi muhsiniy" ("Yaxshi xulqlar") Husayn Boyqaroning o'g'lAbulmuhsin Mirzoga bag'ishlangan.

Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati"⁹ nomli asari taniqli adabiyotshunos professor N.Komilov tomonidan forstojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qilindi va nashr etildi. Mutafakkir Husayn Voiz mazkur asarida nutq odobi to'g'isida batafsil fikr yuritgan. Uning fikricha, tilni asrash, har tomonlama o'ylab gapirish insonning donoligi, aql-zakovati mahsulidir. Insonning ma'naviy qiyofasi, martabasi, shuhrati, obro'-e'tibori uning nutqi orqali namoyon bo'ladi. Shu sababdan ulug' donishmand darajasiga yetgan Husayn Voiz Koshifiy nutq jarayonida tildan, So'zdan foydalanishning me'yor-lari haqida, har doim tilga e'tiborda bo'lish to'g'isida quyidagicha saboq beradi: "Birinchi, yolg'on

⁹ Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи Султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Т., 1994.

gapirishdan, zero yolg'onchi xudoning dushmanidir. Ikkinchi, va'daga xilof gapirish va munofiqona so'z aytishdan. Uchinchi, g'iybat va bo'hton gaplardan, chunki bo'hton fosiqlar ishidir. To'rtinchi, behuda bahsu munoqashadan, ayb qilishdan, gap tashishdan. Bular shayton vasvasasiga kiradi. Beshinchi, o'zinimaqtash va ta'riflashdanki, bu xudbinlikka olib keladi. Oltinchi, navkar va xizmatkorni la'natlashdan. Yettinchi, qarg'ashdan, duoyi bad qilishdan, chunki bu jonu dilning ofatidir. Sakkizinchi, mazax-masxara qilish va hazil-huzuldan”¹⁰.

Husayn Voiz Koshifiy nutq odobi haqida mulohaza yuritar ekan, talaffuz ravonligi va ohangni ham e'tibordan chetda qoldir-maydi: “Ovozning ingichkaligi badgumonlik, vahmnolik dalilidir. Ovozning mu'tadil(yoqimli) bo'lishi tadbirkorlik, har ishga yaxshi saranjom bermak nishonasidir. Ovozning dimog'da chiqishi kibru ahmoqlik va kamfahmlik alomatidir. Ohistalik birla so'zlamak xo'blik(go'zalik) va yaxshilik nishonasidir. So'z aytish vaqtida qo'l tebratmaslik ziyraklik va yaxshilik nishonasidir”.

Ulug' mutafakkirning “Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javon-mardlik tariqati” asarini mutolaa qilar ekansiz, so'zning muqaddas bir ne'mat ekanligi, so'z inson aql-zakovatining kaliti – inson bilan so'z bamisol et bilan tirnoq kabi zikr etiladi: “Agar so'z senikimi yoki sen so'znikimi, deb so'rasalar, aytgil: men so'zniki va so'z menikidir, chunki so'z insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevadan, mevani esa daraxtdan ajratib bo'lmaydi. Agar nuqsonli so'z qaysidir, deb so'rasalar, Xudo va rasulning so'ziga muvofiq kelmaydigan so'z, deb javob bergil”. Husayn Voiz Koshifiy Alisher Navoiy tomonidan hurmat va ehtirom bilan tilga olingan mashhur notiqlardan biri. Husayn Voiz Koshifiy notiq sifatida o'sha davrda eng mashhur kishilardan bo'lishi bilan birga, o'z davrining zabardast olimi, astronomi, matematigi, shoiri ham edi. Alisher Navoiy o'zining “*Majolis unnafois*” asarida u haqda quyida-gilarni qayd etadi: “Mavlono Husayn Voiz – “Koshifiy” taxallus qilur, Sabzavorliqdur. Oz fan bo'lg'aykim, daxli bo'limg'ay, xususan, va'z, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysisida mutaayyin va mashhur ishlari bor va musannafotidin biri «*Javohir ut-tafsir*» durkim, «*Al-baqara*» surasin bir mujallad bitibdurkim, munsifi qat' bila yuz jo'z bo'lg'ay»¹¹.

Husayn Voiz Koshifiy Qur'oni karimdagi birgina «*Al baqara*» surasiga yuz bosma taboq hajmdagi tafsir yozgan. Mana shu ma'lumotning o'zi ham Husayn Voiz Koshifiyning ulug' bir donishmand, katta bir notiq ekanligidan dalolatdir.

Husayn Voiz Koshifiy nutqlarining ta'sirchanligi, jozibadorligi haqida uning o'g'li Faxriddin Ali Safiy «*Latoyifut tavoyif*» nomli asarida quyidagilarni eslaydi: «Kunlarning birida ahli majlisga Mavlono Sayid G'iyo'siddin degan mashhur so'z ustasi kechikib kelgan. Bu majlisga Abdurahmon Jomiy ham tashrif buyurgan ekan. Sayid G'iyo'siddin kirib kelishi bilan Jomiy undan so'rabdi:

- Nechuk kechikdingiz, mavlono G'iyo'siddin?
- Meni ma'zur tuting, ustod, - debdi G'iyo'siddin, - kelayotgan edim, masjidi jome'da Husayn Voiz Koshifiy nutq so'zlayotgan ekan, shunga mahliyo bo'lib

¹⁰ Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи Султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. А.Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти. Т., 1994, 51-бет.

¹¹ Алишер Навоий. Мажолисун нафоис. Асарлар, 12-том. Т., 1966, 123-бет.

qolibman”. Husayn Voiz Koshifiyning nutqlari jozibadorligi bilan har qanday kishini jalb qila olgan.

Husayn Voiz Koshifiy axloq, tarix, tasavvuf, nujum, riyoziyot, fiqh sohalariga doir bir qator asarlar yaratgan. Uning «*Futuv-vatnomai sultoniy*», «*Axloqiy Muhsiniy*», «*Risolai hotamiya*», «*Anvari Suhayliy*», «*Javohir ut-tafsir*» kabi asarlari fikrimiz dalilidir. Bu asarlar besh yuz yildan ortiq vaqt O‘tsa-da, sharqona odob va axloq dasturi sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Husayn Voiz Koshifiy Alisher Navoiyning muxlisi, shogirdi va do‘sti bo‘lgan. U «*Tafsiri Husayniy*» va «*Javohir ut-tafsir at-tuhfat ul-Amir*» nomli tafsir asarlarini Alisher Navoiyga bag‘ishlagan. o‘z navbatida uning bunday so‘z san’atidagi mahoratini Alisher Navoiy ham yuqori baholaydi. Alisher Navoiy va sulton Husayn Boyqaro o‘z asarlarini xalq o‘rtasida rasmiy ijro etish lozim bo‘lgan paytlarda, bu ishga Husayn Voiz Koshifiyi munosib ko‘rganlar. Ma’lumki, 1492-yilning 8-noyabrida ulug‘ mutafakkir, fors-tojik adabiyotining namoyandasи, Alisher Navoiyning ustozи Abdurahmon Jomiy vafot etadi. Abdurahmon Jomiyning dafn marosimida Alisher Navoiy o‘zining Jomiyga bag‘ishlangan marsiyasini o‘qib eshittirishni ham Husayn Voizga topshirganligi fikrimiz dalilidir.